Formative assessment is more common in teaching speaking skills rather than summative. Teachers use clicker questions, one-minute reflection speaking about a specific topic, in-class discussions to assess learners’ progress and make clear what is being learnt and what needs to be revised. The current proposal takes into consideration the requirements of the Decree No 610 by the Ministry of Education which states that “National TV channels and mass media representatives are recommended to air programs in English that are interesting for children and youth, namely broadcasting TV shows and publishing articles for this group of viewers” and the topics for the speaking discussions will also be taken from these resources.

The stakes for Assessment

Kleeman (2012) notes “Defining the stakes of an assessment can help to plan the proposal appropriately, allocate the resources wisely and support the proposal properly” that students must know how they will be assessed and what can influence their grades.

The stakes are divided into 3 types in this proposal, namely low, medium and high stakes of assessment. In low stake assessment process, quizzes and surveys are used for low-stakes tests where there are minimal negative consequences for the pupils and hardly any liabilities. Since there is no incentive to cheat or exchange answers with others, these tests are frequently done individually. Medium stake assessment describes the process of passing/failing or working harder to pass the speaking test; there are some consequences that can influence learner’s learning process. As high stake assessment requires a great deal of planning and preparation: learners either pass or fail facing major consequences when applying to international certificates or in job interviews after graduating. Both formative and summative assessments are in use in the lessons. Teachers and speaking event leaders will document students’ progress and points that need revising and provide support where needed. In formative assessment, students will be assessed based on the results of each session during the lessons while

summative assessment will be used at the end of the project to identify what learners achieved and how they improved their speaking skills.

Students need to know what language features will be improved and how they influence assessment process before the project begins.

Target language features

In speaking part of learning English there are a few features that make speaker's ideas sound fluent, accurate and supportive. These are avoiding repetition, listening before responding, circumlocution and extending ideas.

Paraphrasing is the best solution to avoid using the same words or phrases continuously and most students can't properly use this technique. It is important to choose the appropriate synonym or alternative that is closest in meaning to the word being used and best matches the context. Repetition of certain groups of words means that students have limited vocabulary or are not confident in what they are saying that they start using same exact words over and over.

As speaking is productive skill that needs concrete set of information to respond, speakers first must listen to what their interlocutors say or ask them. To give brief and concise speeches students will work on listening to main points of conversations and discussions to perform properly using only relevant information in speaking.

Circumlocution – in this style of speech students try to explain their ideas by using indirect ways of giving explanations, especially when the topic of the discussion is not familiar to them or they don't know the right set of words to use. This can be seen as an act of replacing unknown words with more familiar ones.

Extending ideas is another most used feature in speaking process and contains a few sub-skills. One of them is giving reasons for what has already been said and this makes the answer provided complete and informative. Moving from general ideas to specific ones is another sub-skill that makes the speaking easier and more precise. Native speakers do this a lot when they talk about something they first describe it generally and then move into details.

Inventory

Observations showed that there are not enough resources to equip every classroom in the school with projectors, speakers, or headphones, and that most classrooms require connectivity to the Internet in order to use this innovative technique.

Available resources:

LCD projectors – 4

Traditional classrooms

Blackboard – one for each classroom

Teachers with less experience

Necessary resources:

LCD Projectors - 6

Classrooms equipped with headphones, speakers, access to Internet

Electronic whiteboard – 1

competent teachers who have experience in taking international tests

Methods and practices

According to current policy of the school students' lessons are organized focusing on teachers' activity during the classes. Replacing teachers with students as the main figures in speaking lessons will benefit in the following ways both the school and learners:

Student-centered approach in teaching improves memorization of materials being learnt and decreases level of anxiety and frustration, students use their knowledge in more interesting way applying new information with existing ones. Students acquire problem-solving skills related to real-life situations and practice different speaking activities like role-plays. Building the lesson around learners' interests and abilities is another goal of this approach. Using one strategy for all learners and expecting the same positive outcome has proved its inefficiency and student-centered teaching technique approaches students according to their knowledge, level and difficulties they face.

A case study in the USA, Texas proved the effectiveness of student-centered approach when a local teacher Helen Miller started applying this method in her classes and the results surprised her. Miller notes "I expected the SCL (student-centered learning) would make my students lazy and reluctant to do anything at all. But surprisingly the ability to choose how they wanted to learn improved their engagement and performance". Using student-centered approach and online games together will improve their performance as they practice new materials based on the real-life situations and expand their way of thinking and responding.

As Hasanova (2007) claims "This heavy emphasis on grammar rules and phonetic accuracy and rigid teacher-centered methods led to high proficiency in reading, writing and translation, while learners' proficiency in listening and especially in speaking lagged far behind". This shows another insufficient attention to teaching speaking at schools where teacher-centered method is dominant. Students must actively participate in lessons, be able to speak more confidently and use wider range of lexical resources, pronounce words properly, manage ideas in speaking process. As virtual audiences in speaking classes are linked to modernization and development by using online simulators they will be at the center of each speaking lesson where minimum interference required from teachers.

To meet the requirements of the mentioned assessments above, students can practice giving presentations, public speeches and discussing selected topics using online websites recommended by teachers in their free time. Low, medium and high stakes assessments prepare them to speaking quizzes, tests, and interviews and will be scored accordingly based on the criteria provided.

Recommendations and results

The teacher-centered strategy needs to be altered as this proposal focuses on teaching speaking skills and enhancing students’ speaking performances. Students need more speaking practice, and a student-centered approach will motivate them to use their speaking abilities as well as learn how to manage their nervousness and build confidence.

The topics for speaking events must be selected from materials which recommended in accordance with Decree No. 610 of the Ministry of Education, which states that "TV channels and mass media resources are highly recommended to publish and broadcast various programs and articles that will be interesting to young learners in English language", This is done to prevent using sensitive themes in the classrooms.

Groups of actors that will help in this proposal

- People with power: Regional branch of the Ministry of Education officials;
- People with expertise: event leaders, teachers, speakers;
- People with influence: celebrities, motivational trainers;
- People with interest: schoolchildren, parents.

Timeline

4 phases of this proposal must be passed to reach the intended goal of this project.

First phase: observing existing problems and learning the needs of learners (September to November);

Second phase: changing the curriculum and syllabi of English subject at school (November to December);

Phase three: equipping the classrooms, raising the fund with the help of regional branch of Ministry of Education and regional administration (January to March);

Fourth phase: implementing the suggested approach and using internet-based games in speaking classes (March to May).

Funding

Projectors	2400 \$ (6 pcs)
Classroom equipments	2400 \$
Electronic whiteboard	700\$
Teacher-training seminar expenses	2000\$
Honorarium (assistants, experts, event leaders)	2000\$
Total:	9500\$

Discussion of the resources that are reallocated after the project:

Classroom equipment are used only in the same classrooms for further listening and speaking lessons as other subjects don't require using headphones or speakers;

The electronic whiteboard will be sent to the library where students can use it for academic purposes like planning their projects or practicing giving speeches;

Projectors will be distributed between English and Informatics subject teachers as both subjects need using projectors for specific purposes.

As the **cultural** background affects learners' performance and some topics can be sensitive or irrelevant for certain groups of learners there will be monitoring process of selecting topics for speaking events. Presidential Decree No 81 states that Uzbek women (especially younger women like students) will receive both financial and academic support to improve their learning abilities and equality in each sphere of life will be guaranteed. Schoolgirls often complain about the obstacles put by families and other responsible figures that hinder them from learning so speaking events will embrace relevant topics where girls are seen as equal part of educational setting and academic development. Latest results show that schoolgirls have also achieved promising levels in international levels like winning competitions and proved they must be treated equally.

Students will learn to consider troubling issues from a wider perspective and share their ideas appropriately. Actors participating in this project share their experience of giving speeches and do it in cultural framework without contempt and keeping the basics of our cultural background when comparing or referring to other countries' culture and way of living.

Annotated Bibliography

Kleeman, H. (2012). Determining the Stakes of Assessment.

Kleeman in his article about assessment clearly shows what are the stakes for assessment and how they influence learners' performance, what they must focus on and what is expected from them in each type of assessment.

Hasanova, D. (2007). Broadening the boundaries of the Expanding Circle: English in Uzbekistan. *World Englishes*, 26(3), 276–290.

Dilbarhon Hasanova's article proved that teacher-centered approach in teaching English is half effective and there are skills that need other techniques to properly teach them.

Tiffany, M. (2022). 5 Advantages of Student-Centered Learning.

Helen Miller, a teacher of English from Texas, USA shared with her experience of applying student-centered approach in her classes and how effective it was. This new method helped her students to feel free in learning based on their needs and changing the traditional method of teaching.

References

1. Decree of the Cabinet of Ministers No 610. (2021). Measures of improving the quality of teaching foreign languages in educational institutions.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No UP-81.(2022). Measures to improve the system of work with families and women, support for the mahalla and the older generation.
3. Hasanova, D. (2007). Broadening the boundaries of the Expanding Circle: English in Uzbekistan. *World Englishes*, 26(3), 276–290.
4. Kaiser, D. (2019). Growing Your Own Onion: Teachers as Writers of Language Planning and Policy Proposals.
5. Kleeman, J. (2012). Determining the Stakes of Assessment. <https://www.questionmark.com/determining-the-stakes-of-assessments/>
6. Tiffany, M. (2022). 5 Advantages of Student-Centered Learning. <https://homeschoolhideout.com/5-advantages-of-student-centered-learning/>

MAQOLLARNING MAVZUIY GURUHLARI VA ULARDA KONNOTATSIYANING IFODALANISHI

Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi

sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollarning kelib chiqishi, o'rganilishi masalasi, mavzu doirasida qilingan ilmiy izlanishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, maqollarda konnotativ va denotativ ma'no, konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi omillar haqida bayon qilingan, shuningdek, o'zbek xalq maqollarning mavzuiy guruhlarida konnotatsiya hodisasi misollar orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: maqollar, DLT, konnotativ ma'no, denotativ ma'no, tasnif.

ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ПОСЛОВИЦ И ВЫРАЖЕНИЕ СМЫСЛОВОГО СОДЕРЖАНИЯ В НИХ

Мухаммедова Сумбул Икромбек кизи

sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Аннотация. В данной статье представлена информация о происхождении и изучении пословиц, научных исследованиях, проводимых в рамках данной темы, о коннотативном и денотативном значениях пословиц, а также о факторах, создающих коннотацию. Также на примерах анализируется феномен коннотации в тематических группах узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: пословицы, ДЛТ, коннотативное значение, денотативное значение, классификация.

THEMATIC GROUPS OF PROVERBS AND THE EXPRESSION OF CONNOTATION IN THEM

Muxammedova Sumbul Ikrombek qizi

sumbulmuxammedova0304@mail.ru

Annotation. This article provides information on the origin and study of proverbs, scientific research conducted within this topic, as well as the connotative and denotative meaning of proverbs, and the factors that create connotation. Also, the phenomenon of connotation in the thematic groups of Uzbek proverbs is analyzed through examples.

Key words: proverb, DLT, connotative meaning, denotative meaning, classification.

O‘zbek xalq maqollariga ilmiy munosabat shakllarini qomusiy olim M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ko‘rish mumkin. M.Koshg‘ariy ushbu asarda keltirilgan maqollarning filologik, tarixiy, etnografik xususiyatlarini keng va atroflicha tasvirlagan.

Maqollarning sintaktik tabiati tilshunos X.Abdurahmonovning dissertatsiyasi tadqiq predmeti bo‘ldi. Tilshunos olim maqollarning sintaktik xususiyatlari masalasida qo‘lga kiritgan yutuqlari va tajribalari asosida, umuman, maqollardagi variantlilik, bu variantlilikning hududiy va shevaviy, tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlariga xos leksik o‘ziga xosliklari tilshunos M.Sadriddinova tadqiqotlarida o‘z yechimi va tavsifiga ega¹.

O‘zbek xalq maqollarini majmua va xrestomatiyalarga kiritish, tartiblash, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, mavzularga ajratilishi, tanlanishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, M.Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to‘plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga ajratilgan bo‘lib, R.Jumaniyozov to‘plamining so‘nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzuda jamlangan.

2009, 2012, 2013- yillarda T.Mirzayev tomonidan “O‘zbek xalq maqollari” to‘planib, “Sharq” nashriyotida chop etildi. Bu to‘plamlarda maqollar xilma-xil mavzularga ajratilgan holda berilgan.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu yo‘nalishlari keng va rang-barangdir. Maqollarni to‘plab, nashr ettirganlarning har biri ularni o‘zicha tasnif qilgan, guruhlarga ajratgan. Natijada, tasniflarning bir necha turi vujudga kelgan. Quyida ana shunday tasniflarning ayrim guruhlari e‘tibor qaratamiz:

1. *Alifbo tartibi*. Bunda maqollar odatdagi alifbolarning harfiy jadvallariga asosan tartiblashtiriladi.

2. *Maqoldagi asosiy so‘zga qarab tasnif etish tartibi*. Bunday tartiblashtirishni leksik yoki qomusiy tasnif deb ham atash hollari mavjud.

3. *Tematik tasnif*. Mazkur maqollar tasnifi eng keng yoyilgan tasniflardan biri bo‘lib, ularda maqolning mazmuniy yo‘nalishi asos qilib olinadi.

V.I.Dal: “Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, – deb yozgan edi. Demak, maqollarni tasniflash uchun ulardan anglashilgan tushunchalar asos qilib olinsa, tasnifga to‘g‘ri yondashilgan bo‘ladi.

¹ Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоестик хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.43.

. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari”¹ akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar”² deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani”³ to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

Maqollarda ziddiyat va qarama qarshilik motivlari keng qo‘llanilganligi sababli maqollarni mavzuiy tasnif etishda har bir timsolning ijobiy yoki salbiy jihatlarini teng hisobga oladi. Masalan, *yaxshilik* bilan *yomonlik*, *do‘stlik* va *dushmanlik*, *mehnatsevarlik* va *dangasalik* kabi mavzular. Mehnat va mehnatsevarlik yo‘nalishidagi maqollarda ziddiyat, asosan, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, harakatchanlik va kam harakatlilik kabi holatlar o‘rtasida kechadi.

Quyida ana shu mavzu yo‘nalishidagi maqollardan namunalar keltiramiz.

1. *Yotgan yotag‘on bo‘lar,*
Sovuqqa qatog‘on bo‘lar.
2. *Dangasaning ishi bitmas,*
Yoz kelsa ham qishi bitmas.
3. *Gap desang, qop-qop,*
Ish desang, Ashtarxondan top.
4. *Yer boylikning onasi bo‘lsa,*
Otasi — mehnat.
5. *Ish desa, og‘rir oshiq-moshig‘im,*
Osh desa, tayyor katta qoshig‘im.
6. *Ishi borga bir kun hayit,*
Ishi yo‘qqa har kun hayit.
7. *Mehnat kishini boqar,*
Yalqovlik o‘tga yoqar.
8. *Ter to‘kib sochsang urug‘, yer seni qo‘ymas quruq.*

O‘zbek xalq maqollarini o‘rganish va tekshirish jarayonlari shuni ko‘rsatadiki, maqollarimizda mehnat va mehnatsevarlik, mehnat qilishga undash, ishyoqmas va dangasa bo‘lmaslikka da‘vat qilish motivlari eng yuqori o‘rinni egallaydi. Albatta, bunday yo‘nalishdagi maqollarda konnotativ semantika ham muhim o‘rinni egallaydi.

Maqollarda mehnat qilish, ishlashga yo‘naltirish kabi murojaatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri barcha kishilarga qaratishdan qochiladi va o‘zbekona muomala madaniyati,

¹O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987. – B.27-30.

²Sarimsoqov B. “Balandparvoz so‘zlar”. – Toshkent, 1986. – B.38.

³Shomaqsudov Sh. ,Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent, 2001. – B.43.

birovning dilini og'ritib qo'yimaslik kabi murojaat shakllari mehnat va mehnatsevarlikka yo'naltirilgan maqollarda, ayniqsa, kuchliroq ifodasini topadi. Buning natijasida ham konnotativ ma'nolardagi leksik vositalardan foydalanish yetakchi o'ringa ko'tariladi. Ya'ni, biror bir shaxsga to'g'ridan to'g'ri fikrni yo'naltirmasdan, unga yotig'i bilan boshqa timsollar vositasida, ana shu tarbiya vositasi bo'lmish maqol mazmunini yetkazishga erishiladi.

Masalan, *Yotgan yotag'on bo'lar, Sovuqqa qatog'on bo'lar*. Ushbu maqolning izohini quyidagicha sharhlash mumkin. Yotgan, ya'ni ishyoqmas, dangasa odam butun yoz bo'yi ishlamay yotaveradi, qishlik ro'zg'orini, yegulik, kiygulik narsalarni, yoqilg'ini, mollarning yem-xashagi va shu kabilarni hozirlamaydi-da, qish bo'yi qiynalib, sovuq qotib, qaltirab yuradi. Oxir oqibat ochlikda, muhtojlikda, hatto qishda qalin usti-bosh ololmaganidan sovuq qotadi. Maqol orqali inson dangasa bo'lsa, unga hech kim yordam bermasligi va doim muhtojlikda kun ko'rishi mumkinligi to'g'risida nasihat berilgan.

Ya'ni ishyoqmas kishilarning bevosita o'ziga buyruq ohangida aytilmayapti, agar beg'am, beparvo yuraversa, qishda qiynalib qolishidan ogohlantirilayapti. Ushbu maqolda ishlatilgan "sovuq" "qatog'on bo'lmoq" birliklari konnotatsiya hodisasiga moslashgan birliklar sifatida baholanishi mumkin.

Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar. Odatda, maqolar mazmunan barchaga, umumga qaratilgan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, mehnatsevarlik yo'nalishidagi maqollarda ham bu jihat bo'rtib turadi. Keltirilayotgan maqolning mazmunidan ham umumga qaratilganlik anglashilib turibdi. Maqolning mazmunidan: qaysi kishiki, mehnat qilsa, ter to'ksa u hech qachon och qolmasligi, hamisha oziqlari g'amlangan bo'lishi haqida ijobiy ottenkadagi fikr keltiriladi va unga qarama-qarshi fikr sifatida esa, ishyoqmas, yalqov odamning hech qachon bunday huzur-halovatga erisha olmasligi haqida ogohlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan (*Yotgan yotag'on bo'lar, Sovuqqa qatog'on bo'lar*) maqolda bunday ikki qarama-qarshi ziddiyatli tomonlar tilga olinmagan, ibrat mazmuni bitta vositaning o'zida mujassam etilgan bo'lsa, keyingi maqolda ziddiyatli qutblar ikki vosita yordamida ifodalangan va tinglovchiga shu tarzda qiyoslash, solishtirish orqali maslahat berilayotganini kuzatishimiz mumkin.

"*Mehnat kishini boqar, Yalqovlik o'tga yoqar*" maqolidagi "o'tga yoqmoq" birkmasi o'zining haqiqiy ma'nosidan ancha yiroq bo'lib, konnotativ ma'no ifodalashga moslashgan. Shunki, o'tga yoqmoq haqiqiy ma'noda olovda kuyish, yong'in qurboni bo'lish kabilarni ifodalashi lozim edi. Keltirilgan o'rinda esa, bu jihat, ya'ni "o'tga yoqmoq" faqat ramziy, simvolik ma'nolardagina keltirilmoqda.

Mehnat va mehnatsevarlik mavzuyidagi maqollarda xalqimizning diniy e'tiqodlari, urf-odat va qadriyatlarini bilan bog'liq tushunchalar orqali ham mehnat tarbiyasiga erishish motivlarini ham kuzatishimiz mumkin. Ana shu xarakterdagi bir necha maqollarni keltiramiz: *“Ishi borga bir kun hayit, Ishi yo‘qqa har kun hayit”*, *“Tek turganga shayton tayoq tutqazar”* va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq maqollarining deyarli har bir mavzu guruhini diniy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo‘lgan maqollarsiz tasavvur qilish mumki emas. Shu qatorda sabr-qanoat va matonat mavzuiy yo‘nalishiga mansub maqollarda ham ana shu toifadagi maqollar mavjud. Jumladan, *“Sabr tagi – rahmon, Shoshgan ishi – shayton”* yoki *“O‘ttiz kun ro‘zaning bir kun hayiti bor”* kabilar. Keltirilgan maqollarning leksik tarkibida xalqimizning diniy qarashlariga aloqador bir qancha so‘zlar ishtirok etgan. Masalan, dastlabki maqoldagi “rahmon”, “shayton” yoki keyingi maqoldagi “ro‘za” va “hayit” so‘zlarini ana shunday so‘zlar qatoriga kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan diniy qadriyatlarimizga aloqador maqollar tarkibidagi “rahmon” va “shayton”, shuningdek, “o‘ttiz kun ro‘zaning mashaqqati, sinovi” va “hayit bayrami huzur-halovatlarini” bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi orqali kishilarni sabr-qanoatli bo‘lish, qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lishga undash kabi konnotativ ma’nomalar ifodalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq maqollari turmushning qaysi jabhasiga yo‘naltirilganligi bilan 30 dan ortiq mavzuiy guruhlariga ajralishi mumkin. Ana shu guruhlarda konnotativ jihatdan ‘ziga xos ifodalarga xizmat qiluvchi leksik, grammatik va sintaktik birliklar ham mavjud bo‘lib, ularning tekshirilishi tilshunoslikning lingvopoetika tarmog‘i taraqqiyoti uchun muhim ma’lumotlar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русских, узбекских и казахских языков): Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 50 с.;
2. Jo‘rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy -uslubiy qo‘llanilishi: Filol.fan.nomz... diss. – Samarqand, 2006. – 149 b.
3. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987. – B.27-30.
4. Sarimsoqov B. “Balandparvoz so‘zlar”. – Toshkent, 1986. – B.38.
5. Shomaqsudov Sh. ,Shoraxmedov Sh. Ma’nomalar maxzani. – Toshkent, 2001. – B.43
6. Турдалиева Д.С. Ўзбек халк мақолларининг лингвопоетик хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.43.

ПРИЛОЖЕНИЯ НАУКИ ТЕОРИИ ИГРОВ В ЭКОНОМИКЕ

Нориева Азиза Жасур кизи

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана,

Кафедра прикладной математики, ассистент.

noriyevaaziza@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье представлено применение теории игр и науки о процессах в экономике, а также рассмотрена проблема нахождения максимальной прибыли на основе количества продукции, отправленной потребителям.

Ключевые слова: *потребитель, товар, прибыль, динамическое программирование, оптимальное распределение.*

ВВЕДЕНИЕ

Наука теория игр и исследование процессов занимается созданием методов и их реализацией для более эффективного функционирования управленческих организационных систем. Предметом этой науки является система управления нескольких подразделений, связанных друг с другом. На всех этапах развития общества прилагаются усилия к ведению экономики на основе четкого плана. Это особенно важно в нынешних условиях, когда рыночные отношения восстанавливаются. Для определения направления эффективного экономического развития необходимо овладеть методами количественного моделирования процессов. Это необходимо при разработке ближайших и стратегических планов в рамках народного хозяйства, рассмотрении крупных и долгосрочных событий, определении различных вариантов экономического развития. Также создать программу развития региона, обеспечить разработки и исследования согласованными планами, выполнить ряд сложных задач по целевому программному планированию, распределить возможности, реализовать рациональную работу предприятия в условиях внешней рыночной среды. Во многих случаях для изучения организационных вопросов может служить наука исследования процессов — направление прикладной математики, эффективно развивающееся быстрыми темпами.

МЕТОДОЛОГИЯ

Общая модель распределения напряжения выглядит следующим образом. Если y_j продукции отправляется j – потребителю, пусть прибыль от этого равна $R_j(y_j)$. В этом случае также указывается предел для y_j . $\sum_{j=1}^s H_j(y_j) = N$, (где $y_j = 0, 1, \dots$ при всех значениях j)

$$\sum_{j=1}^s R_j(y_j)$$

найти максимум функции.

Динамическое программирование можно использовать для решения задач этого типа. Для этого введем следующие обозначения: $g_j(n)$ — максимальная прибыль от распределения n продукции $1, 2, \dots, j$ потребителям; $y_j(n)$ — количество товаров, отправленное потребителю j для получения прибыли $g_j(n)$. Тогда, исходя из рекуррентной формулы динамического программирования, имеем следующее соотношение:

$$g_j(n) = \max_{y_j} \{R_j(y_j) + g_{j-1}[n - H_j(y_j)]\}, n = 0, 1, \dots, N,$$

$$g_0(n) = 0, n = 0, 1, \dots, N,$$

он определяется через $n = 0, 1, \dots, N$ и так далее, заканчивая нахождением значения $g_s(N)$. Это значение $g_s(N)$ представляет собой максимальную прибыль. Количество продукта y_j , которое необходимо отгрузить потребителям для получения этой максимальной прибыли, определяется следующим образом: сначала определяется $y_s(N)$, что дает значение $g_j(n)$, что дает y_s , после чего y_{s-1} определяется с помощью y_{s-1} и так далее. Поэтому соответствующий $y_j(n)$ также следует учитывать при вычислении $g_j(n)$. [1]

РЕЗУЛЬТАТЫ

Найдите оптимальный план распределения продукции и максимальное значение прибыли, исходя из следующего, при $N = 5$

	$y_1 = 0$	$y_1 = 1$	$y_1 = 2$	$y_2 = 0$	$y_2 = 1$	$y_2 = 2$	$y_3 = 0$	$y_3 = 2$	$y_3 = 3$
$R_j(y_j)$	0	1	3	0	2	3	0	2	3
$H_j(y_j)$	0	2	3	0	3	4	0	1	2

Учитывая, что $g_0(n) = 0$ для всех значений n , запишем приведенную выше рекуррентную формулу в случае, когда $j = 1$, т.е.

$$g_1(n) = \max_{y_1} R_1(y_1) + g_0(n - H_1(y_1))$$

здесь необходимо, чтобы $H_1(y_1) \leq n$. Легко видеть, что при $n = 0$ значение y_1 , удовлетворяющее условию $H_1(y_1) \leq 0$, уникально и $y_1(0) = 0$, то $g_1(0) = 0$.

Записываем два последних значения в соответствующие ячейки таблицы ниже. Теперь рассмотрим случай, когда $n = 1$. Здесь есть два значения y_1 , удовлетворяющие условию $H_1(y_1) \leq 1$: $y_1 = 0$ и $y_1 = 1$, однако $R_1(0) = 0$, $R_1(1) = 2$. Поэтому записываем $y_1(1) = 1$ и $g_1(1) = 2$ в соответствующие ячейки таблицы.

Пусть $n = 2$, тогда существуют три значения y_1 , удовлетворяющие условию $H_1(y_1) \leq 2$: $y_1 = 0$, $y_1 = 1$ и $y_1 = 2$, однако $R_1(0) = 0$, $R_1(1) = 2$, $R_1(2) = 3$. Поэтому записываем $y_1(2) = 2$ и $y_1(2) = 3$ в соответствующие ячейки таблицы. Можно показать, что $y_1(n) = 2$ и $g_1(n) = 3$ для $n = 3, 4, 5$. Все это пишем в соответствующих графах. После этого мы видим $j = 2$. Итак, рекуррентная формула для каждого n выглядит следующим образом:

$$g_2(n) = \max_{y_2} R_2(y_2) + g_1[n - H_2(y_2)]$$

здесь максимум $H_2(y_2) \leq n$ осуществляется по значениям y_2 , удовлетворяющим условию. Для упрощения расчета обозначим выражение в скобках $T(n, y_2)$:

n	$y_1(n)$	$g_1(n)$	$y_2(n)$	$g_2(n)$	$y_3(n)$	$g_3(n)$
0	0	0	0	0	0	0
1	1	2	0	2	0	2
2	2	3	0	2	0	3
3	2	3	0	3	0	3
4	2	3	2	4	1	4
5	2	3	3	5	3	5

Так $y_1 = 2, y_2 = 0, y_3 = 3; g_3(5) = 6$.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В теории игр и исследовании процессов оптимальные решения многих актуальных задач, в том числе и в области экономики, решаются с помощью метода минмакса. Количество продукции, доставляемой потребителям, и прибыль — это систематически планируемые методы и алгоритмы для получения максимальной прибыли.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Noriyeva A. O' QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART MISOL VA MASALALARNING ANAMIYATI //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
2. Meliyeva Mohira Zafar qizi, & Noriyeva Aziza. (2023). KO'PHADLARNI HOSILA YORDAMIDA KO'PAYTUVCHILARGA AJRATISH . *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(3), 117–120. Retrieved from <http://newjournal.org/index.php/01/article/view/5708>
3. Abdunazarov R. Issues of effective organization of practical classes and clubs in mathematics in technical universities. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*. Current Issue: Volume 2022, Issue 3 (2022) Articles.
4. Абдуназаров Р. О. численной решение обратной спектральной задачи для оператора Дирака //Журнал “Вопросы вычислительной и прикладной математики. – №. 95. – С. 10-20.
5. Отакулов С., Мусаев А. О. Применение свойства квазидифференцируемости функций типа минимума и максимума к задаче негладкой оптимизации //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2020. – №. 12 (64). – С. 48-53.
6. Мусаева А. О. Зарубежная система финансирования образовательных учреждений //Наука и новые технологии. – 2011. – №. 10. – С. 75-81.
7. Мусаев А. О. Интеграция образовательных систем России и Дагестана XIX века //Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2010. – №. 3. – С. 21-24.

МИКРОТЎЛҚИНЛИ НУРЛАНИШ ЁРДАМИДА ДОННИ ЗАРАРСИЗЛАНТИРИШ

¹ Abduxalimova M.A., ³ Йўлчиев А.Б., ¹ Исломова Д.Ф., ² Тўйчиева Д.М.,

¹ Андижон қишлоқ хўжалик ва агротехнологиялар институти

² Андижон машинасозлик институти

³ Андижон давлат университети

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада дон захираларини зараркунандалардан зарарсизлантириш ноанъанавий манбаларидан фойдаланиш самарадорлиги баён қилинган. Ўтказилган тажриба нагтижаларига кўра Дон зараркунандаларни (донхўрлар, омбор узун тумшуги, капалаклар, шоли узун тумшуги, ун қўнғизи, ун каналари) йўқ қилишда ўта юқори частотали электр магнит майдонида ҳамда инфрақизил нурлар, ультрабинафша нурлар билан ишлов берилди. Дон захираларини зарарсизлантиришда кимёвий препаратлардан фойдаланиш ўрнига шамоллатиш, иссиқлик билан ишлов берилди. Дон захираларини сақлаш даврида зараркунандалар билан зарарланиши олдини олишда сақлаш омборларида дезинфекция ва фумигация тадбирлари амалга оширилди.

Зарарланган дон захираларига ўта юқори частотали электрмагнит майдонида ишлов берилганда дон қатламининг харорати 180 втда соатига 120 секунддан сўнг кескин равишда ошиб кетади. Бунинг натижасида эса клейковина миқдори 2- баробардан 5-баробаргача бўлган ҳолатда пасайиб кетиши кузатилди.

Калит сўзлар: Дон, зараркунандалар (донхўрлар, омбор узун тумшуги, капалаклар, шоли узун тумшуги, ун қўнғизи, ун каналари), ЎЮЧ (ўта юқори частотали нурлар), инфрақизил нурлар, ультрабинафша нурлар.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описана эффективность использования нетрадиционных источников обеззараживания зерновых запасов. По результатам эксперимента зерно обрабатывали электромагнитным полем сверхвысокой частоты, инфракрасными лучами, ультрафиолетовыми лучами

для уничтожения вредителей (зерноедов, ракушек длинноклювых, бабочек, рисовых длинноклювов, мучного жука, мучногоклеца). При обеззараживании зерновых запасов вместо применения химических препаратов применялись вентиляция и термическая обработка. На складах хранения были проведены дезинфекционные и фумигационные мероприятия для предотвращения заражения вредителями в процессе хранения зерновых запасов.

Когда поврежденные запасы зерна обрабатываются электромагнитным полем чрезвычайно высокой частоты, температура слоя зерна резко возрастает через 120 секунд при мощности 180 Вт/ч. В результате количество клейковины уменьшилось от 2 до 5 раз.

Ключевые слова: Зерно, вредители (зерноеды, ракушки длинноклювые, бабочки, рисовые длинноклювы, мучной жук, мучной клещ), УФ (лучи сверхвысокой частоты), инфракрасные лучи, ультрафиолетовые лучи.

ANNOTATION

This article describes the effectiveness of using non-traditional sources of disinfection of grain stocks. Based on the results of the experiment, the grain was treated with an ultrahigh frequency electromagnetic field, infrared rays, and ultraviolet rays to destroy pests (grain beetles, long-beaked barnacles, butterflies, long-beaked rice beetles, flour beetles, flour mites). When disinfecting grain stocks, instead of using chemicals, ventilation and heat treatment were used. Disinfection and fumigation measures were carried out at the storage warehouses to prevent pest infestation during the storage of grain stocks.

When damaged grain stocks are treated with an extremely high frequency electromagnetic field, the temperature of the grain layer increases sharply after 120 seconds at a power of 180 Wh. As a result, the amount of gluten decreased from 2 to 5 times.

Key words: Grain, pests (grain beetles, long-beaked barnacles, butterflies, long-beaked rice beetles, flour beetles, flour mites), UV (ultra-high frequency rays), infrared rays, ultraviolet rays.

Бирлашган миллатлар ташкилоти қошидаги озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти томонидан олинган маълумотларга кўра, йил давомида донларни сақлаш ва қайта ишлаш даврида зарарланиши дон захираларининг 10% га миқдорини истеъмолга яроқсиз холга келишига олиб келмоқда. 3. Йил давомида, зарарланган донларни ҳисоблаб кўрилганда бу кўрсаткич ер юзида 180-200 миллион кишини дон маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини қондиришга етадиган миқдордаги 55-65 миллион тонна дон ҳиссасига тўғри келади.

Дон захираларини зарарланишига сабаб бўладиган омилларга қаторига, сақлаш даврида технологик жараённи тўғри ташкил қилмаслик ҳамда шу билан бирга, дон зарарланганларига қарши курашни амалга оширмаслик қабиларни киритишимиз мумкин. Донни қайта ишлаш корхоналарида донхўрлар, ун кўнғизи (мита), омбор ва гуруч тумшукбуруни каби дон зарарланганлари катта зарар келтирувчи зарарланганлар ҳисобланади, бу турдаги зарарланганлар дон захираларининг катта қисмини яроқсиз холга келишига сабаб бўлади [3,4].

Айни пайтда дунёда дон ва дон маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш, шу жумладан, дон массасини юқори сифатли сақлаш, омбор зарарланганларидан максимал даражада зарарсизлантирган ҳолда замонавий технология ва ускуналарни қўллаш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда [5].

Дон захиралари зарарланганлари бутун дунёда кенг тарқалган бўлиб, сақлаш вақтида ҳар хил турдаги дон маҳсулотларига зарар этказди. Етиштирилган бутун ҳосилни сақлаш ва ундан оқилона фойдаланиш, хомашёдан максимал даражада маҳсулот олиш давлатнинг асосий вазифаларидан биридир. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг мавсумийлиги муносабати билан йил давомида ёки ундан кўпроқ вақт давомида турли эҳтиёжлар учун фойдаланиш учун ғалла захираларини сақлаш зарурати туғилади [6].

Донни қайта ишлаш саноатини юқори сифатли хомашё билан таъминлаш энг муҳим масалалардан бири саналади. Дон ва дон маҳсулотларининг сифати технологик, биологик, физик-кимёвий ва истеъмол хусусиятларининг комбинацияси билан тавсифланади, бу унинг мақсадли фойдаланишга яроқчилигини белгилайди. Юқори сифатли дон олишнинг энг муҳим шартлари ҳар бир алоҳида операция бўйича технологик талабларни бажаришдир ва бу дон захираларини тўғри сақлашни ташкил қилишни талаб қилади. Шундагина қишлоқ хўжалигининг юксалишига, ғалла сифати ва барча тармоқлар маҳсулдорлигини оширишга, шунингдек, халқаро стандартларга жавоб берадиган маҳсулотлар ишлаб чиқарилишига олиб келади [1]

Дон захираси зараркунандаларга қарши курашиш, инсоният буғдой донини етиштириш, қайта ишлаш ва захира қилишни бошлаган давридан буён давом этиб келаётган жараёнлардан бири хисобланади. Дон зараркунандаларининг баъзилари донда намлик ва иссиқлик ҳосил бўлишининг манбайи бўлиб хизмат қилади, шу билан бирга, ишлаб чиқариш ускуналари ва технологик жараёнларни бузулишига, шунингдек баъзилари кўпгина юкумли касалликларни тарқалиши воситачи бўлиб хизмат қилади [7].

Қуйидаги 1-жадвалда дон захиралари таркибидаги айрим зараркунандаларнинг турлари ва уларнинг 1 кг дон массасига нисбатан зарар етказиш коэффициентлари ҳамда зарарланиш даражаси келтирилган.

1-жадвал

Зараркунандалар зарар етказиш коэффициент миқдори

Зараркунандаларни номлари	Зарар етказиш коэффициент	Зараркунандалар сони, дон	
		Кана	Қўнғиз
Донхўрлар	1,7	-	5-8
Омбор узун тумшуғи	1,5	20-25	-
Капалаклар	1,1	20-30	-
Шоли узун тумшуғи	1,0	-	5-10
Ун қўнғизи	0,4	-	7-10
Ун каналари	0,04	20-22	

Дон зараркунандалари билан зарарланиш даражасини аниқлаш учун диаметри 2,5 мм ва 1,5 мм бўлган элаклар комплектида 1 кг оғирликдаги зарарланган дон 2 минут давомида эланади ҳамда олинган масса, таркибидаги зараркунандалар мутахассис ёрдамида қўл меҳнати ёрдамида ажратилади.

Бугунги кунда, дон зараркунандаларини зарарсизлантириш мақсадида турли кимёвий ишлов бериш воситаларидан кенг фойдаланилади, бунинг учун дон сақлаш омборлари кимёвий воситалар ёрдамида дезинфекция ва фумигация қилиш жараёнлари амалга оширилади. Фумигация ва дезинфекция қилишда қўлланиладиган кимёвий ишлов бериш воситаларини нотўғри қўллаш доннинг сифатига ва олинадиган уннинг сифатига ҳамда инсон саломатлигига жуда катта зарар келтиради. Дон таркибидаги зараркунандаларни йўқ қилишда кимёвий воситаларнинг ўрнига ноанъанавий воситалардан хусусан турли тўлқин узунлиги ва тебранишлар сонига эга бўлган электр магнит майдонларидан ва нурлардан фойдаланиш борасида бир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Ноанъанавий манбалар саналган нурлардан нафақат қишлоқ

хўжалигида, балки ҳарбий техника ишлаб чиқариш саноатида, тиббиётда, зараркундаларга қарши курашишда, мева ва сабзавотларни қуритишда кенг фойдаланилмоқда. Юқорида келтириб ўтилган нурлар тўлқин узунлиги ва тебраниш сони (частота) билан фарқланиши 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Саноат миқёсида фойдаланиладиган нурлар ва уларнинг турлари


Номланиши	Қисқартмаси	Тебранишлар сони	Тўлқин узунлик диапазони
Инфракизил	ИҚ	2мм – 760 нм	150 ГГц – 400 ТГц
Юқори частотали	ЮЧ	100м – 10 м	3-30 МГц
Ультра юқори частотали	УЮЧ	1м – 10 см	300 МГц – 3 ГГц
Ўта юқори частотали	ЎЮЧ	10 – 1 см	3 - 30 ГГц
Гипер юқори частотали	ГЮЧ	1 – 0,1 мм	300 МГц - 3000 ГГц

Жадвалдан кўришиб турганидек, саноатнинг турли тармоқларида фойдаланиладиган нурлар ўзаро тўлқин узунлиги ва тебранишлар сони (частотаси) билан фарқланади.

Дон ва дон маҳсулотлари зараркундаларни зарарсизлантириш, ғалла ва дон маҳсулотлари сифатига таъсири ҳамда буғдой донини ноанъанавий усуллардан фойдаланган ҳолда қайта ишлаш орқали ноанъанавий манбаларнинг энергия самарадорлигига доир тадқиқотлар етарли даражада ўрганилмаган.

Дон сақлаш корхоналарини зарарсизлантириш бўйича чора-тадбирлар мураккаб, қиммат ва ишлаб чиқаришни тўлиқ тўхтатишни талаб қилади. Шунинг учун ишлаб чиқаришни тўхтатишни талаб қилмайдиган микротўлқинли электр магнит майдонида ишлов бериш усули катта қизиқиш уйғотади. Ушбу усул энг истиқболли, экологик тоза, узлуксиз ишлайдиган усуллардан бири бўлиб, зараркундаларга қарши кураш харажатларини унинг самарадорлигини ошириш билан камайтиришга имкон беради.

Тадқиқот объекти сифатида биз ўта юқори частотали электр магнит майдонида дон зараркундаларини зарарсизлантириш мақсадида магнетрон билан жихозланган лаборатория қурилмасидан фойдаландик.



1-расм. Дон зараркундаларини ЎЮЧ электр магнит майдонида зарарсизлантиришнинг лаборатория қурилмаси

1-магнетрон; 2-резонатор; 3-маҳкамлагич; 4-янчилма учун идиш; 5-зарарланган дон; 6-шишали аралаштиргич; 7-двигатель; 8-термометр; 9-двигатель учун маҳкамлагич; 10-ЎЮЧ бошқарув блоки; 11-ЛАТР; 12-штатив;

Дон зараркундаларини ЎЮЧ электр магнит майдонида ишлов бериш лаборатория қурилмасида ишлов беришнинг тартиби қуйидагича белгиланди: Зарарланган дон намуна миқдори (масалан, 500 г) тажриба шартларида кўрсатилган даражагача зарарланиб ишлов берилди.

Намуна учун олинган зарарланган дон (5) ўта юқори частотали электр магнит майдон ёрдамида лаборатория қурилмасининг резонатор (2) камерасининг ички қисмига диэлектрик ушлагичлар (3) ёрдамида маҳкамланган текис тубли чинни идиш (4)га узатилди. Ишчи камерада ўта юқори частотали электр магнит майдони ёрдамида ишлов беришда 2450 МГц частотага эга бўлган магнетрон (1) дан чиқаётган нурлар таъсирида иссиқликни маҳсулотнинг бутун ҳажми бўйлаб бир хилда тақсимланишини таъминлаш мақсадида, лаборатория қурилмасининг ўрта қисмидан ўтказилиб чинни идишнинг марказига қадар тушурилган шиша аралаштиргич (6) ёрдамида аралаштирилди. Шишали аралаштиргич штатив (12) тутқич (9) га маҳкамланган двигатель (7) га маҳкамланган. Аралаштиргичнинг айланишлар сонини ЛАТР (11) ёрдамида бошқариб турилди. Зарарланган доннинг ишлов бериш вақти бирлиги давомида қувватга ва зарарланган доннинг зарарланганлик кўрсаткичига боғлиқ ҳолда ҳароратини ўзгариши тутқич (9) га маҳкамланган спиртли термометр (8) ёрдамида назорат қилиб турилди. Лаборатория қурилмасининг қопқоқ қисми алоҳида қоплама билан қопланган бўлиб, иссиқликни ҳамда нурланишни ташқарига чиқиб кетмаслигини таъминлайди. Қурилманинг қопқоқ қисми ёпилганидан сўнг бошқариш блоки (10) ёрдамида ўта юқори частотали нурланишнинг қувват ва вақт кўрсаткичлари бошқариб турилди. Лаборатория қурилмаси 100÷600 Вт қувват ва максимум 120 минутга мўлжалланган, бундай

қувват ва вақт зарарланган донга ўта юқори частотали электр магнит майдон ёрдамида ишлов бериш учун етарли бўлди.

Дон захираларининг зараркундаларини йўқ қилиш муаммоларини бартараф этиш учун энг мақбул дезинсекциялаш параметрлари, хусусан, ўрганилаётган хом ашёга ЎЮЧ нурланишнинг таъсир қуввати ва вақтини аниқлаш таклиф қилинди. Дон захираларининг зараркундаларидан самарали зарарсизлантириш мақсадида ЎЮЧ нурланиш ёрдамида дезинсекция қилишнинг мақбул шароитларни ўрганилди ва танланди.

Зараркундаларидан зарарсизлантиришда ЎЮЧ нурланиш таъирининг қуввати ва вақт давомийлиги катталиклари бўйича тадқиқот натижалари келтирилган(3-жадвал).

3-жадвал

ЎЮЧ нурланишнинг қуввати ва вақтнинг зараркундаларга қарши кураш самарадорлигига таъсири

№	дон миклдори гр.	режим таъсири		ЎЮЧ нурланишнинг таъсирида тирик қолган зараркундалар номланиши ва сони. (дона)		
		қувват Вт.	вақт сек.	Омбор тумшукбуруни	Гуруч тумшукбуруни	Ун қўнғизи (мита)
1	2	3	4	5	6	7
1	Назорат			20	20	20
2	50	100	40	20	20	20
3			80	18	18	20
4			120	16	15	15
5			160	11	11	12
6			200	8	10	9
7			240	5	7	7
8			280	5	4	5
9			50	150	40	20
10	80	18			18	20
11	120	14			15	15
12	160	12			11	12
13	200	9			10	9
14	240	4			6	5
15	280	4			4	3
16	50	180			40	10
17			80	5	4	5
18			120	0	0	0
19			160	0	0	0
20			200	0	0	0
21			240	0	0	0
22			280	0	0	0

3-жадвалдан кўриниб турибдики, буғдой донини зарарсизлантиришда натижа шуни кўрсатадики, дон зараркунандаларидан самарали таъсир этганини кузатиш мумкин. Келтирилган 18, 19, 20, 21, 22 вариантларда таъсир этиш вақти 120 дан 280 сек. давомида самарали натижага эришилган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, саноатда дон захираларини дон зараркунандаларидан химоя қилиш орқали ишлаб чиқариш корхоналарини иқтисодий самарадорлигини ошириш, рентАбеллекни яхшилаш, иқтисодий жихатдан кам харж, ресурстежамкор технологияларни таклиф қилиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб турибди. Бу борада, саноатда қўлланиладиган ноанъанавий манбалар ичида ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов бериш дон зараркунандаларини бошқа усулларга нисбатан самарали эканлиги ўтказилган тажрибалар орқали ўз исботини топди. Дон захиралари зараркунандаларининг буткул нобуд бўлиши қувват-180 Вт ва вақти -120-160 сек. бўлиб, ушбу параметрлар оптимал режим деб танланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Туйчиева Д.М., Рахимджанов М.А. Применение сверхвысокочастотной обработки для дезинсекции пшеницы.//Узбекский химический журнал. 5/2016. –Т.: 2016, С. 13-16. 134.
2. Tuychiyeva D.M. The effect microwave energy on the protein complex of wheat grain.// Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. ISSN 281-9750. September, 2021-9/1., -р. 78-81 135.
3. Туйчиева Д.М. Изучения влияние СВЧ на зерно и выявление оптимальной величины влажности. Международная научно-практическая конференция. Современные проблемы инновационного развития науки, образования и производства. Анд.-2020. С.
4. Пюшнер Г. Нагрев энергией сверхвысоких частот. Пер. с англ. Э.Д. Пастрона. - М.: Энергия. 1968. -312 с.
5. Рогов И.А. Некрутман С.В. Сверхвысокочастотный нагрев пищевых продуктов. -М.: Агропромиздат. -1986. - 351с.
6. Nudgett E.E. Microwave Properties and Heating Characteristics of Food // Food Technology. – 1986. v. – 40. – N 6. – P. 84-94.
7. Гаспарянц А.Г., Губнев Ю.К., Красников В.В. и др. Оценка распределения энергии СВЧ поля в резонатронных системах по нагреву жидкого диэлектрика. //Инж.Физ.журнал. -1981. -№6. –С.10-70.

8. Йулчиев А. Б. Норматов Анвар Мирзаевич Свч-установка для влаготепловой обработки хлопковой мятки //Universum: технические науки. – 2020. – №. 7-2. – С. 76.

9. Йулчиев Аслбек Бахтиёрбекович (2020). Экспериментальные результаты и оптимизация переработки хлопковой мятки в СВЧ-установке. Universum: технические науки, (7-2 (76)), 46-50.

10. Yulchiev Aslbek, Serkayev Qamar, Mirzaev Abdugappor, & Asqarov Ibrokhim (2022). Technological scheme of refining of cottonseed oil purified from gossypol. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, (3-4), 23-29.

11. Yulchiev Aslbek, Serkayev Qamar, & Mirzaev Abdugappor (2022). The operator model of high gossypol cotton oil extraction, functional scheme of technical gossypol extraction and oil refining. Universum: химия и биология, (3-2 (93)), 42-47.

ЗАРАРЛАНГАН ДОННИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИГА НОАНЪАНАВИЙ МАНБАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

¹ Abduxalimova M.A., ³ Йўлчиев А.Б., ¹ Исломова Д.Ф., ² Тўйчиева Д.М.,

¹ Андижон қишлоқ хўжалик ва агротехнологиялар институти

² Андижон машинасозлик институти

³ Андижон давлат университети

АННОТАЦИЯ

Дон захиралари зараркунандалари бутун дунёда кенг тарқалган бўлиб, сақлаш вақтида ҳар хил турдаги дон маҳсулотларига зарар этказди. Етиштирилган бутун ҳосилни сақлаш ва ундан оқилона фойдаланиш, хомашёдан максимал даражада маҳсулот олиш давлатнинг асосий вазифаларидан биридир. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг мавсумийлиги муносабати билан йил давомида ёки ундан кўпроқ вақт давомида турли эҳтиёжлар учун фойдаланиш учун ғалла захираларини сақлаш зарурати туғилади.

Айни пайтда дунёда дон ва дон маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш, шу жумладан, дон массасини юқори сифатли сақлаш, омбор зараркунандаларидан максимал даражада зарарсизлантирган ҳолда замонавий технология ва ускуналарни қўллаш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Яхшиланган истеъмол хусусиятлари билан бир вақтнинг ўзида, ошди озиқ-овқат хавфсизлиги ва биологик қиймати билан.

Дон сақлаш корхоналарини зарарсизлантириш бўйича чора-тадбирлар мураккаб, қиммат ва ишлаб чиқаришни тўлиқ тўхтатишни талаб қилади. Шунинг учун ишлаб чиқаришни тўхтатишни талаб қилмайдиган микротўлқинли нурланишдан фойдаланадиган усул катта қизиқиш уйғотади. Ушбу усул энг истиқболли, экологик тоза, узлуксиз ишлайдиган усуллардан бири бўлиб, зараркунандаларга қарши кураш харажатларини унинг самарадорлигини ошириш билан камайтиришга имкон беради.

Андижон вилояти Ўзбекистоннинг энг шарқий вилояти бўлиб, Фарғона водийсининг шарқий қисмини эгаллайди. Вилоят аҳолиси 3,4 млн кишидан ортиқ. Андижон вилояти ҳудуди бўйича энг кичик, лекин мамлакатдаги энг зич жойлашган вилоят (бутун Ўзбекистон аҳолисининг деярли 10%, гарчи унинг майдони бутун республиканинг 1% дан камроғини ташкил этса ҳам).

Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари хусусан нон ва нон маҳсулотларини таъминлаш муҳим саналади. Андижон вилоятининг ер майдонининг кичиклиги,

аҳолининг зичлигини инобатга олган холда шуни айтиш керакки, вилоятда ҳар бир қарич ердан унумли фойдаланиш, етиштириш донни тўғри сақлаш, ишлаб чиқариш корхоналарини узвийлигини таъминлаш муҳим саналади. Қуйидаги жадвалда 2022-йилда вилоят аҳолисининг буғдой донига бўлган талабини ўрганиш бўйича таҳлил натижалари келтирилган.

1-Жадвал

Андижон вилояти аҳолисининг 2022 йил учун буғдой донига бўлган талабини қондириш даражаси таҳлили

№	туманлар	2022 йил ҳосилидан				Қабул қилинган дон, га
		ф/х сони	Ажратилган майдон, га.	Экилган майдон, га	хосилдорлик	
1	Андижон	43	3 697	3 697	31,1	11 507
2	Асака	31	3 510	3 510	30,9	10 852
3	Балиқчи	66	6 715	6 715	31,4	21 110
4	Булоқбоши	6	2 800	2 800	31,1	8 722
5	Бўстон	5	4 789	4 789	27,9	13 374
6	Жалақудук	32	6 845	6 845	29,1	19 902
7	Избоскан	50	6 186	6 186	30,3	18 727
8	Улуғнор	37	5 094	5 094	26,1	13 283
9	Мархамат	30	5 548	5 548	30,2	16 762
10	Олтинқул	84	4 066	4 066	30,9	12 561
11	Пахтабод	48	6 664	6 664	32,2	21 435
12	Хўжабод	38	1 819	1 819	29,4	5 353
13	Шахрихон	39	6 577	6 577	31,1	20 486
	Қўрғонтепа	42	8 190	8 190	30,5	24 948
	Жами:	551	72500	72500	30,2	219022

Андижон вилоятида буғдойнинг маҳаллий тупроқ-иқлим шароитига мос, серҳосил навларини етиштириш учун 551 та фермер хўжалиги томонидан 72500 гектар ер майдони ажратилган бўлиб, шундан 72500 гектар ер майдонига буғдой экилган, бўлиб вилоят бўйича ўртача хосилдорлик 30,2 ц/га ни ташкил қилди. Давлатга сотилган дон миқдори 219022 тоннани ташкил қилган.

1-жадвалдан кўришиб турибдики, Андижон вилояти кесимидаги туманларда етиштирилган доннинг энг юқори хосилдорлик Балиқчи ва Шахрихон туманлари, паст хосилдорлик Бўстон ва Улуғнор туманлари хиссасига тўғри келади. Андижон вилоятида етиштирилган доннинг маълум бир қисми спирт ишлаб чиқаришга ҳамда уруғлик тайёрлаш учун ажратилишини хисобига, вилоят аҳолисининг дон ва дон маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини

тўлақонли қопламайди. Шунинг учун импорт хисобига бошқа давлатлардан дон келтирилиб қайта ишланади.

Буғдойнинг “Чиллаки”, “Первитса”, “Аср”, “Алексеевич”, “Бобур”, “Ўзбекистон-25”, “Андижон-4”, “Момақалдиқоқ”, “Краснодар-99” ва бошқа дон навлари етиштирилади. Вилоятда донни қайта ишлаш ихтисослаштирилган “Андижондонмахсулот” АЖ, “Асакадонмахсулот” АЖ, “Қўрғонтепадонмахсулот” АЖ учта йирик ун тегирмонлари, ун ва дон маҳсулотлари ишлаб чиқарадиган мини ун тегирмонлари фаолият кўрсатмоқда.

Ун тегирмонлари донни қайта ишлаб ун ва ун маҳсулотлари ишлаб чиқариш билан шуғулланмоқда. Бугунги кунга келиб вилоятда, донни қайта ишлашга ихтисослаштирилган учта ун ишлаб чиқариш корхонасидан ташқари, 10 дан ортиқ ХХР, Туркия давлатларида ишлаб чиқарилган мини технологик линиялар билан жихозланган кунига ўртача 50-100 тонна буғдойни қайта ишлаш қувватига эга корхоналар фаолият олиб бормоқда.

Вилоятда ғаллани қайта ишлаш саноати юқори сифатли хомашё билан таъминлангани асосий вазифадир. Юқори сифатли дон олишнинг энг муҳим шarti ҳар бир алоҳида операция бўйича технологик талабларни бажаришдир ва бунинг учун ишлаб чиқариш корхоналари хўжалик ичидаги технологик физик-кимёвий назоратни тўғри ташкил қилиши талаб этилади.

Ишлаб чиқариш корхоналарига келтирилган хом ашё дастлабки технологик физик-кимёвий назоратдан ўтказилиб, меъёрий хужжатлар талабига жавоб берадиган хом ашёлар навлар ва сифат кўрсаткичларига мос равишда сақлаш омборларига жойлаштирилади. Омборларда сақлаш даврида технологик физик-кимёвий назоратни тўғри ташкил қилиниши, корхонанинг иқтисодий самарадорлигига, сифатли маҳсулот чиқишига хизмат қилади.

Дон захираларини сақлаш даврида зараркунандалар билан зарарланиши олдини олишда сақлаш омборларида дезинфекция ва фумигация тадбирлари амалга оширилади. Юқоридаги тадбирларни амалга оширишда қўлланиладиган кимёвий препаратлардан нотўғри фойдаланиш, белгиланган меъёрларга риоя қилмаслик, дон захираларини сифатига салбий таъсир кўрсатишига олиб келади. Бу нарса ўз навбатида, бундай донлардан ишлаб чиқарилган ун ва ун маҳсулотларини сифатига ҳам ўз таъсирини кўрсатади.


Дон захираларини зарарсизлантиришда кимёвий препаратлардан фойдаланишни ўрнига шамоллатиш, иссиқлик билан ишлов бериш, кучсиз ишқорий эритмалар билан донни қайта ишлаш, электр магнит майдонида донларга ишлов бериш каби ноанъанавий усуллардан фойдаланиш борасида бир қатор изланишлар олиб борилмоқда.

Буларнинг орасида инфрақизил, ультрабинафша нурлардан фойдаланиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижасида бир қатори ижобий натижаларга эришилган. Хозирда ўта юқори частотали электр магнит майдонида дон захираларига ишлов бериш орқали зараркундаларни йўқ қилиш борасида илмий изланишлар олиб борилмоқда. Ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов беришда ишлов бериш вақт бирлиги давомида ишлов беришдаги қувват ҳамда хароратнинг ўзаро муносиби оптимал қийматларда бўлишлилиги самарали натижаларни олишга хизмат қилади. Ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов беришда асосий ишлов бериш қурилмаси магнетрон бўлиб, озиқ-овқат маҳсулотлари учун рухсат этилган 2450 МГц частота ишлов берилди.

Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, дон зараркундаларини тўлиқ йўқ қилишда, зарарланган донларга 180 Вт да 120 секунд вақт бирлиги давомида ишлов берилганда, омбор тумшукбуруни, гуруч тумшукбуруни ва ун кўнғизи (мита), 100% йўқ қилинишига эришилди.

Зарарланган донларнинг сифат кўрсаткичларини бири бу доннинг клейковина миқдори бўлиб, ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов берилгандан сўнг олинган доннинг клейковина миқдорини ва сифатини ўзгариши олиб борилган тадқиқот натижалари орқали ўрганилди.


Қуйидаги 1 расмда зарарланган донларга ўта юқори частотали электр магнит майдонида вақт бирлиги давомида ишлов берилганда дон таркибидаги клейковинанинг миқдорини ўзгариши келтирилган.



1-расм. Зарарланган донларнинг клейковина миқдорини ўзгариши

Расмдан кўриниб турибдики, зарарланган донларнинг таркибидаги клейковина миқдори, 180 Вт да 300 секунд давомида ишлов берилганда кескин ўзгариш учрайди.

Олиб борилган тадқиқотлардан шу нарса маълумки, ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов беришда, иссиқлик қайта ишланаётган материал таркибидаги эркин сув молекулаларининг дипол моментларини ортиши эвазига материал ички қисмдан қизишни бошлайди. Бунинг натижасида қисқа вақт ичида, материал харорати ортади ҳамда материал намлигини кескин камайишга эришилади. Куйидаги 2-расмда зарарланган донларга вақт бирлиги давомида ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов берилганда, дон қатламларининг хароратини ўзгариши келтирилган.



2-расм. Зарарланган донларнинг хароратини ўзгариши

Расмдан кўриниб турибдики зарарланган донларга вақт бирилиги давомида ишлов берилганда ишлов бериш қувватининг ҳамда ишлов бериш вақтининг ўзгариши дон қатламининг хароратини кескин ортишига олиб келади. Зарарланган донларга 100 Вт да 40 секунд давомида ишлов берилган харорат 30°C ташкил қилган бўлса, 180 Вт да 40 секундда ишлов берилган харорат 42°C ни ташкил қилди, ишлов бериш вақти 280 секунд бўлганда дон қатламининг харорати шунга мос равишда 65°C ва 100°C ларни ташкил қилди. Дон қатламининг хароратини бундай кескин ўзгариши, дон бошқа сифат кўрсаткичларига, жумладан клейковинани кластерланишига, сифатини йўқотиб ун чиқиш миқдорини камайишига ҳам таъсир кўрсатади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, саноатда дон захираларини дон зараркундаларидан химоя қилиш орқали ишлаб чиқариш корхоналарини иқтисодий самарадорлигини ошириш, рентабеллекни яхшилаш, иқтисодий

жихатдан кам харж, ресурстежамкор технологияларни таклиф қилиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб турибди. Бу борада, саноатда қўлланиладиган ноанъанавий манбалар ичида ўта юқори частотали электр магнит майдонида ишлов бериш дон зараркунандаларини бошқа усулларга нисбатан самарали эканлиги ўтказилган тажрибалар орқали ўз исботини топди. Дон захиралари зараркунандаларининг буткул нобуд бўлиши қувват-180 Вт ва вақти -120-160 сек. бўлиб, ушбу параметрлар оптимал режим деб танланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Туйчиева Д.М., Рахимджанов М.А. Применение сверхвысокочастотной обработки для дезинсекции пшеницы.//Узбекский химический журнал. 5/2016. –Т.: 2016, С. 13-16. 134.
2. Tuychiyeva D.M. The effect microwave energy on the protein complex of wheat grain.// Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. ISSN 281-9750. September, 2021-9/1., -p. 78-81 135.
3. Туйчиева Д.М. Изучения влияние СВЧ на зерно и выявление оптимальной величины влажности. Международная научно-практическая конференция. Современные проблемы инновационного развития науки, образования и производства. Анд.-2020. С.
4. Пюшнер Г. Нагрев энергией сверхвысоких частот. Пер. с англ. Э.Д. Пастрона. - М.: Энергия. 1968. -312 с.
5. Рогов И.А. Некрутман С.В. Сверхвысокочастотный нагрев пищевых продуктов. -М.: Агропромиздат. -1986. - 351с.
6. Nudgett E.E. Microwave Properties and Heating Characteristics of Food // Food Technology. – 1986. v. – 40. – N 6. – P. 84-94.
7. Saidkhodzhaeva, D., Choriyev, A., Akramova, R., Yulchiev, A., & Tukhtaev, S. (2023). Study of the chemical composition of the amaranth plant by the method of chromatography. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 390). EDP Sciences.
8. Йулчиев А. Б. Норматов Анвар Мирзаевич Свч-установка для влаготепловой обработки хлопковой мятки //Universum: технические науки. – 2020. – №. 7-2. – С. 76.
9. Йулчиев Аслбек Бахтиёрбекович (2020). Экспериментальные результаты и оптимизация переработки хлопковой мятки в СВЧ-установке. *Universum: технические науки*, (7-2 (76)), 46-50.
10. Yulchiev Aslbek, Serkayev Qamar, Mirzaev Abdugappor, & Asqarov Ibrokhim (2022). Technological scheme of refining of cottonseed oil purified from gossypol. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (3-4), 23-29.
11. Yulchiev Aslbek, Serkayev Qamar, & Mirzaev Abdugappor (2022). The operator model of high gossypol cotton oil extraction, functional scheme of technical gossypol extraction and oil refining. *Universum: химия и биология*, (3-2 (93)), 42-47.

MATEMATIK MANTIQ ELEMENTLARI (MULOHAZALAR VA MANTIQUIY AMALLARNING ROSTLIK JADVALI. ROSTLIK JADVALI YORDAMIDA MANTIQUIY QONUNLARNI ISBOTLASH. TESKARI TEOREMA. QARAMA-QARSHI TEOREMA. TESKARISINI FARAZ QILISH USULI. ZARURIY VA YETARLILIK SHARTLARI). MATEMATIK INDUKSIYA METODI

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Matematik mantiq elementlari (Mulohazalar va mantiqiy amallarning rostlik jadvali. Rostlik jadvali yordamida mantiqiy qonunlarni isbotlash. Teskari teorema. Qarama-qarshi teorema. Teskarisini faraz qilish usuli. Zaruriy va yetarlilik shartlari). Matematik induksiya metodi tushintiriladi.*

***Kalit so'zlar:** Mulohazalar, elementlar, amallar, rost, induksiya.*

***Abstract:** In this article, the elements of mathematical logic (truth tables of reasoning and logical operations. Proving logical laws using truth tables. Inverse theorem. Contradictory theorem. The method of hypothesizing the inverse. Necessary and sufficient conditions). The method of mathematical induction is explained.*

***Key words:** Considerations, elements, actions, true, induction.*

Matematik mantiq elementlari (Mulohazalar va mantiqiy amallarning rostlik jadvali. Rostlik jadvali yordamida mantiqiy qonunlarni isbotlash. Teskari teorema. Qarama-qarshi teorema. Teskarisini faraz qilish usuli. Zaruriy va yetarlilik shartlari). Matematik induksiya metodi

Mulohazalar va mantiqiy amallarning rostlik jadvali. Rost yoki yolg'onligi haqida fikr yuritish mumkin bo'lgan har qanday darak gap mulohaza deyiladi.

Quyidagi gaplarning mulohazalar ekanligini ko'rish mumkin:

1. Toshkent – O'zbekiston Respublikasi poytaxti.
2. Yetti – tub son.

3. 6 soni 8 dan katta.
4. $\sqrt{4} = 2$.
5. 11 soni- murakkab son.

Ravshanki, 1, 2, 4 gaplar – rost, 3, 5 gaplar esa yolgʻon.

Mulohazalar soʻzlar yoki belgilar yordamida tuzilishi mumkin. Undov va soʻroq gaplar mulohazalar hisoblanmaydi. Bundan tashqari, rost yoki yolgʻon deb aytish mumkin boʻlmagan darak gaplar ham mulohazalar emas.

Masalan, quyidagi gaplar:

- 1) Yashasin 1-oktyabr ustoz va murabbiylar kuni!
- 2) Bugun qaysi kun?
- 3) x – tub son,

mulohazalar hisoblanmaydi.

Odatda mulohazalar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadi. Masalan, $A \Leftrightarrow «6 < 3»$, $B \Leftrightarrow «5 - tub son»$ deb yozamiz. Bu shuni anglatadiki, A - 6 soni 3 dan kichik degan mulohaza. B - 5 - tub son degan mulohaza. Bu mulohazalar oddiy mulohazalarga misol boʻla oladi. “Yoki”, “va”, “agar. . .boʻlsa, u holda. . .”, “... faqat va faqat shu holdaki, agar. . .boʻlsa”, “. . .emas” mantiqiy bogʻlovchilar yordamida oddiy A va B mulohazalardan boshqa murakkab mulohazalar tuzilishi mumkin.

Masalan:

- 1) $C \Leftrightarrow «6 < 3 \text{ yoki } 5 - tub son»$;
- 2) $D \Leftrightarrow «6 < 3 \text{ va } 5 - tub son»$;
- 3) $E \Leftrightarrow «\text{agar } 6 < 3 \text{ boʻlsa, } u \text{ holda } 5 - tub son»$;
- 4) $F \Leftrightarrow «6 < 3 \text{ faqat va faqat shu holdaki, agar } 5 - tub son \text{ boʻlsa}»$;
- 5) $K \Leftrightarrow «5 - tub son emas»$.

Matematik mantiqda murakkab mulohazalarning rost yoki yolgʻonligi oddiy mulohazalarning mazmun jihatiidan qatʼiy nazar oʻrnatiladi va mantiqiy bogʻlovchilarga aniq maʼno beriladi. Keling, mantiqiy bogʻlovchilarning aniq taʼrifiga oʻtamiz.

A va B mulohazalar berilgan boʻlsin. U holda ularning konyunksiyasi deb A va B mulohazalardan ikkalasi ham rost

bo'lganda rost, qolgan barcha hollarda yolg'on bo'lgan mulohazaga aytiladi.

A, B ikkita mulohazaning konyunksiyasi $A \wedge B$ yoki $A \& B$ bilan belgilanadi va "A va B" deb o'qiladi. "Konyunksiya" mantiqiy amalining qiymatlari quyidagi jadval yordamida ifodalanishi mumkin, bu erda R - "rost", "Y" - "yolg'on" degan ma'noni anglatadi:

A	B	$A \wedge B$
R	R	R
R	Y	Y
Y	R	Y
Y	Y	Y

Keyinchalik bunday jadvallarni rostlik jadvallari deb ataymiz. Agar rostlik jadvalida "R" qiymati 1 ga, "Y" qiymati esa 0 ga almashtirilsa, u holda rostlik jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

A	B	$A \wedge B$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	0

Ko'rinib turibdiki, $A \wedge B$ mulohazalarning qiymati A va B mulohazalari qiymatlari ko'paytmasiga mos keladi. Shuning uchun $A \wedge B$ ba'zan mantiqiy ko'paytirish deb ataladi (va $A \cdot B$ bilan belgilanadi).

A va B mulohazalar diszyunksiyasi $A \vee B$ bilan belgilanadigan mulohaza bo'lib, A va B mulohazalarning ikkalasi ham yolg'on bo'lganda yolg'on, qolgan barcha holatlarda esa rost bo'ladi. $A \vee B$ yozuvi "A yoki B" deb o'qiladi.

Ba'zi matematik adabiyotlarda A va B mulohazalarning diszyunksiyasi ba'zan $A+B$ bilan belgilanadi va mantiqiy qo'shish deyiladi. "Dizyunksiya" mantiqiy amali uchun rostlik jadvalini keltiramiz:

A	B	$A \vee B$
1	1	1
1	0	1
0	1	1
0	0	0

Mulohazaning inkori deb, mulohazaning o‘zi yolg‘on bo‘lsa, rost bo‘lgan va dastlabki mulohaza rost bo‘lsa, yolg‘on bo‘ladigan mulohazaga aytiladi. A mulohazaning inkori \bar{A} bilan belgilanadi va “A emas” deb o‘qiladi.

Mulohazaning inkori rostlik jadvali quyidagicha ifodalanadi:

A	\bar{A}
1	0
0	1

A va B mulohazalar berilgan bo‘lsin. A va B mulohazalarning implikasiyasi

$A \Rightarrow B$ bilan belgilanadigan mulohaza bo‘lib, A rost va B yolg‘on bo‘lgandagina yolg‘on, boshqa barcha hollarda rost bo‘ladi.

$A \Rightarrow B$ uchun rostlik jadvalini quyidagicha:

A	B	$A \Rightarrow B$
1	1	1
1	0	0
0	1	1
0	0	1

Shunday qilib, yolgʻondan yolgʻon yoki rost kelib chiqadi degan mulohaza rost mulohaza hisoblanar ekan. Lekin rostdan yolgʻon kelib chiqadi degan mulohaza yolgʻon mulohaza hisoblanadi.

$A \Rightarrow B$ "agar A boʻlsa, u holda B boʻladi" yoki " A dan B kelib chiqadi" deb oʻqiladi.

A va B mulohazalar berilgan boʻlsin. A va B mulohazalar ekvivalentligi deb, faqatgina A va B mulohazalardan ikkalasi ham rost yoki A va B mulohazalardan ikkalasi ham yolgʻon boʻlgandagina rost boʻladigan mulohazaga aytiladi. A va B mulohazalarining ekvivalentligi " $A \Leftrightarrow B$ " kabi belgilanadi va " A boʻladi, faqat va faqat shu holdaki, agar B boʻlsa" deb oʻqiladi.

$A \Leftrightarrow B$ uchun rostlik jadvali quyidagicha:

A	B	$A \Leftrightarrow B$
1	1	1
1	0	0
0	1	0
0	0	1

Misol 1. Quyidagi mulohazalarning rostlik qiymatini aniqlang:

- 1) 7 – tub son va 9 – tub son;
- 2) 7 - tub son va 9 - tub son;
- 3) agar $2 \cdot 2 > 4$ boʻlsa, u holda 9 - tub son;
- 4) $2 \cdot 2 \leq 5$ faqat va faqat shu holdaki, agarda 9 – toq son boʻlsa.

Yechish:

1) “7 – tub son ” – rost mulohaza, “9 – tub son ” – yolgʻon mulohaza. Shuning uchun, taʼrifiga koʻra, bu mulohazalarning konyunksiyasi yolgʻon mulohazadir;

2) diszyunksiya taʼrifiga koʻra, berilgan mulohaza rost hisoblanadi;

3) “ $2 \cdot 2 > 4$ ” – yolgʻon mulohaza. Shuning uchun, implikasiya taʼrifiga koʻra, bu mulohaza rost hisoblanadi;

4) “ $2 \cdot 2 \leq 5$ ” - rost mulohaza va “9 – toq son” - rost mulohaza. U holda ekvivalentlikning taʼrifiga koʻra, mulohaza rost hisoblanadi.

Misol 2. Quyidagi mulohazalarning qaysi juftligi bir-birini inkor qilishini aniqlang:

- 1) $2 > 0, 2 < 0$;
- 2) $6 < 10, 6 \geq 10$?

Yechish. 1) $2 > 0$ mulohazaning inkori $\neg(2 > 0)$ mulohazadir. Bu 2 soni 0 dan katta emasligini anglatadi, ya'ni, $2 \leq 0$. Demak, $2 < 0$ mulohaza $2 > 0$ ning inkori emas.

2) $\neg(6 < 10)$ 6 ning 10 dan kichik emasligini bildiradi. Demak, $\neg(6 < 10)$ mulohaza $6 \geq 10$ ga ekvivalentdir. Aksincha, $\neg(6 \geq 10)$ mulohaza $6 < 10$ ni bildiradi. Shuning uchun berilgan mulohazalar bir-birining inkori hisoblanadi.

Rostlik jadvali yordamida mantiqiy qonunlarni isbotlash.

Mulohazalar ustidagi mantiqiy amallar yordamida berilgan mulohazalardan turli xil murakkab mulohazalar qurish mumkin. Bunda amallarni bajarish tartibi qavslar bilan ko'rsatiladi. Masalan, A, B, C mulohazalar va mantiqiy amallar yordamida quyidagi mulohazalarni qurish mumkin:

$$(A \wedge B) \Rightarrow \neg(C \vee B) \text{ yoki } A \Leftrightarrow \neg((B \wedge C) \vee A).$$

Bunday murakkab mulohazalar formulalar deb ataladi.

Formulalarni yozishni soddalashtirish uchun quyidagi kelisuvni kiritish mumkin. Mantiqiy amallar quyidagi tartibda bajariladi: avval inkor, keyin konyunksiya, so'ngra diszyunksiya, so'ng implikatsiya va nihoyat ekvivalentlik bajariladi. Amallarni bajarish tartibiga ko'ra, qo'shimcha qavslar qoldirilishi mumkin. Ushbu kelishuvga asosan oxirgi formulalarni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$A \wedge B \Rightarrow \neg(C \vee B) \text{ yoki } A \Leftrightarrow \neg(B \wedge C \vee A).$$

Formulani tashkil etuvchi mulohazalar elementar formulalar yoki o'zgaruvchan mulohazalar deb ataladi. Ular 0 yoki 1 qiymatlarini qabul qiladilar.

\mathcal{I} va \mathcal{R} , formulalar o'zgaruvchan mulohazalarning har qanday rostlik qiymatlari to'plami uchun bir xil rostlik qiymatlarini qabul qilsa, ekvivalent deyiladi. Ekvivalentlik « $\mathcal{I} \equiv \mathcal{R}$ » deb yoziladi.

Misol 3. $\neg\neg A \equiv A, A \vee \neg A \equiv A$.

Formulalarning ekvivalentligini isbotlash uchun odatda rostlik jadvallaridan foydalaniladi. Yuqoridagi formulalar uchun rostlik jadvalini keltiramiz:

A	$\neg A$	$\neg\neg A$	$A \vee A$
1	0	1	1
0	1	0	0

O‘zgaruvchan mulohazalarning har qanday rostlik qiymatlari to‘plami uchun "rost" qiymatini oladigan formulalar ayniy rost formulalar yoki mantiqiy qonunlar (tavnologiyalar) deb ataladi.

Misol 4. $A \vee \bar{A}$ - bu formula A o‘zgaruvchi mulohazaning istalgan qiymati uchun "rost" qiymatini qabul qiladi. Haqiqatdan, agar $A = 1$ bo‘lsa, u holda $A \vee \bar{A} = 1 \vee 0 = 1$ bo‘ladi. Agarda $A = 0$ bo‘lsa, u holda $A \vee \bar{A} = 0 \vee 1 = 1$ bo‘ladi.

$A \vee \bar{A}$ formula tavnologiya bo‘ladi.

O‘zgaruvchi mulohazalarning har qanday qiymatlari to‘plami uchun "yolg‘on" qiymatini qabul qiladigan formulalar aynan yolg‘on formulalar deb ataladi.

Misol 5. $A \wedge \bar{A}$ - bu formula A o‘zgaruvchi mulohazaning har qanday rostlik qiymati uchun "yolg‘on" qiymatini qabul qiladi. Haqiqatdan, agar $A = 1$ bo‘lsa, u holda $A \wedge \bar{A} = 1 \wedge 0 = 0$ bo‘ladi. Agarda $A = 0$, bo‘lsa, u holda yana $A \wedge \bar{A} = 0 \wedge 1 = 0$ ni hosil qilamiz.

a) $\overline{A \wedge B} = \bar{A} \vee \bar{B}$ mantiqiy ko‘paytirish uchun:

A	B	$A \wedge B$	$\overline{A \wedge B}$	\bar{A}	\bar{B}	$\bar{A} \vee \bar{B}$
0	0	0	1	1	1	1
0	1	0	1	1	0	1
1	0	0	1	0	1	1
1	1	1	0	0	0	0

b) $\overline{A \vee B} = \bar{A} \wedge \bar{B}$ mantiqiy qo‘shish ucun:

A	B	$A \vee B$	$\overline{A \vee B}$	\bar{A}	\bar{B}	$\bar{A} \wedge \bar{B}$
0	0	0	1	1	1	1
0	1	1	0	1	0	0
1	0	1	0	0	1	0
1	1	1	0	0	0	0

Teskari teorema. Qarama-qarshi teorema. Teskarisini faraz qilish usuli. Inkor. Zaruriy va yetarlilik shartlari. Matematik induksiya metodi.

Berilgan teoremaga teskari tasdiq yoki teskari teorema bu— dastlabki berilgan teorema(to‘g‘ri tasdiq)ning sharti - xulosa, xulosasi esa shart qilib berilgan tasdiqdir.

Teskari teoremaga teskari bo‘lgan teorema dastlabki berilgan(to‘g‘ri) teorema hisoblanadi. Har ikkala o‘zaro teskari teoremaning to‘g‘riligi xulosaning to‘g‘riligi uchun ulardan birortasining shartlarining bajarilishi zarur va yetarli ekanligini anglatadi.

Har bir teorema $A \Rightarrow B$ implikasiya shaklida ifodalanishi mumkin, bunda A teoremaning sharti, B natijasi esa teoremaning xulosasidir. U holda $B \Rightarrow A$ shaklida yozilgan teorema unga teskari hisoblanadi.

Ko‘pincha teskari teoremaning quyidagi umumiy ta’rifi qo‘llaniladi: agar $(A \wedge C) \Rightarrow B$ to‘g‘ri teorema bo‘lsa, u holda nafaqat $B \Rightarrow (A \wedge C)$, balki $(B \wedge A) \Rightarrow C$, $(B \wedge C) \Rightarrow A$ lar ham teskari teoremlar deyiladi.

Agar teoremaning sharti yoki xulosasi murakkab hukmlar bo‘lsa, u holda teskari teorema bir-biriga ekvivalent bo‘lmagan ko‘rinishlarda bo‘ladi. Misol uchun, agar teorema sharti A va xulosasi $Y \Rightarrow Z$ bo‘lsa: $A \Rightarrow (Y \Rightarrow Z)$, u holda teskari teoremaning beshta shakli mavjud:

1. $(Y \Rightarrow Z) \Rightarrow A$
2. $(A \Rightarrow Z) \Rightarrow Y$
3. $Z \Rightarrow (A \wedge Y)$
4. $A \Rightarrow (Z \Rightarrow Y)$
5. $Y \Rightarrow (Z \Rightarrow A)$

Umuman olganda, to‘g‘ri teorema o‘rinli bo‘lsa ham, teskari teorema to‘g‘ri bo‘lmashligi mumkin. Agar teskari tasdiq to‘g‘ri bo‘lsa ham, uning isboti to‘g‘ri teorema isbotiga qaraganda ancha qiyin bo‘lishi mumkin.

To'g'ri teorema teskari toremaning qarama-qarshisiga ekvivalentdir:

$$(A \Rightarrow B) \Leftrightarrow (\bar{B} \Rightarrow \bar{A})$$

Teskari teorema to'g'ri toremaning qarama-qarshisiga ekvivalentdir:

$$(B \Rightarrow A) \Leftrightarrow (\bar{A} \Rightarrow \bar{B})$$

Masalan, "agar uchburchakning ikkita burchagi teng bo'lsa, u holda ularning bissektrisalari teng bo'ladi" va "agar uchburchakning ikkita bissektrisalari teng bo'lsa, u holda ularga mos keladigan burchaklar teng bo'ladi" teoremlari

— bir-biriga teskari hisoblanadi. Ba'zi bir toremaning o'rinaligidan, umuman olganda, unga teskari toremaning o'rinaligi kelib chiqmaydi. Masalan, teorema: "agar son 6 ga bo'linadigan bo'lsa, u 3 ga bo'linadi"

— o'rinali, lekin teskari teorema: "agar son 3 ga bo'linadigan bo'lsa, u 6 ga bo'linadi"

— o'rinalimas. Teskari teorema o'rinali bo'lsa ham, to'g'ri toremani isbotlashda ishlatiladigan vositalar uni isbotlash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Masalan, Yevklid geometriyasida "tekislikdagi umumiy perpendikulyarga ega bo'lgan ikkita to'g'ri chiziq kesishmaydi" teoremasi ham, "tekislikdagi kesishmaydigan ikkita to'g'ri chiziq umumiy perpendikulyarga ega" teskari teoremasi ham o'rinali bo'ladi.

Qarama-qarshi teorema - bu dastlabki toremaning sharti va xulosasi ularning inkorlari bilan almashtiriladigan tasdiqdir. Har bir teorema $A \Rightarrow B$ implikasiya sifatida ifodalanishi mumkin, bunda A - teorema sharti, B natijasi esa toremaning xulosasidir. U holda $\bar{A} \Rightarrow \bar{B}$ ko'rinishda yozilgan teorema unga qarama-qarshi teorema hisoblanadi. Bu yerda \bar{A} - A ning inkori, \bar{B} - B ning inkori. B xulosasining $A \Rightarrow B$ uchun A teorema shartlarining zaruriy va yetarlilik isboti ikkita qarama-qarshi teoremalardan birini ($A \Rightarrow B$ va $\bar{A} \Rightarrow \bar{B}$; $B \Rightarrow A$ va $\bar{B} \Rightarrow \bar{A}$) yoki ikkita teskari teoremalardan birining ($A \Rightarrow B$ va $B \Rightarrow A$; $\bar{A} \Rightarrow \bar{B}$ va $\bar{B} \Rightarrow \bar{A}$) isbotiga keltiriladi.

Teskarisini faraz qilib, isbotlash: ma'lum bir hukmning "isboti" (isbot tezisi) unga zid bo'lgan hukmni rad etish orqali amalga oshiriladigan isbot turi - antitezis.

Misol. Maktabda 20 ta sinf mavjud. Bu maktabning 23 nafar o'quvchisi eng yaqin uylardan birida istiqomat qiladi. Ularning orasida kamida ikkita sinfdosh bo'lishi kerakligini isbotlang. Ko'rsatma: Bu yerda biz 23 qo'shni orasida sinfdoshlar yo'qligini taxmin qilishimiz va ziddiyatga kelishimiz kerak.

Zaruriy va yetarlilik shartlari - mantiqiy bog'langan shartlar. Bu shartlar orasidagi farq mantiq va matematikada hukmlarning bog'lanish turlarini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Zaruriylik sharti

Agar $A \Rightarrow B$ implikatsiya rost mulohaza bo'lsa, u holda B mulohazaning o'rinliliigi A mulohazaning o'rinliliigi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

A mulohazasining o'rinliliigi uchun zaruriy shartlar bu shunday shartlarki, ularsiz A o'rinli bo'la olmaydi.

P hukmi X hukm uchun zaruriy shart hisoblanadi, agarda (rost) X dan (rost) P kelib chiqsa. Ya'ni, agar P yolg'on bo'lsa, u holda X ham yolg'on bo'ladi.

Yetarlilik sharti

Agar $A \Rightarrow B$ implikatsiya mutlaqo rost mulohaza bo'lsa, A mulohazasining rostligi B mulohazasining rostligi uchun yetarlilik sharti hisoblanadi.

Yetarlilik shartlari shunday shartlarki, ular mavjud bo'lganda (bajarilganda, rioya qilinganda) B tasdiq rost hisoblanadi.

P hukmi X hukmi uchun yetarlilik sharti hisoblanadi, agar P (rostligi) dan X (rostligi) kelib chiqsa, ya'ni agar P rost bo'lsa, u holda X ni tekshirish talab etilmaydi.

Zaruriy va yetarlilik sharti

K hukm X hukmi uchun zaruriy va yetarlilik sharti hisoblanadi, agar K X ning ham zaruriy sharti, ham yetarlilik sharti bo'lsa. Bu holda K va X larni teng kuchli yoki ekvivalent deb ham aytash mumkin va $K \Leftrightarrow X$ kabi belgilash mumkin.

Bu implikatsiya va ekvivalentlik amallarini bog'laydigan ayniy rost formuladan kelib chiqadi: $(X \Leftrightarrow Y) \Leftrightarrow (X \Rightarrow Y) \wedge (Y \Rightarrow X)$.

Implikatsiya rost bo'lgan holatlarni ko'rib chiqaylik. Darhaqiqat, agar B hukmi A hukmi uchun zaruriy shart bo'lsa, unda implikatsiyaning rost bo'lishi uchun B rost bo'lishiga majbur, shu bilan birga, A hukmi B hukmi uchun yetarlilik shartdi hisoblanadi, ya'ni agar A rost bo'lsa, u holda B rost bo'lishiga majbur bo'ladi.

Shunga o'xshash fikrlashlar teskarisiga ham ishlaydi, agar A hukmi B hukmi uchun zaruriy shart va B hukmi A hukmi uchun yetarlilik sharti bo'lsa.

Rostlik jadvalidan ko'rinib turibdiki, A B uchun zaruriy va yetarlilik sharti bo'lsa, ikkala hukm ham rost bo'lishiga yoki ikkala hukm ham yolg'on bo'lishiga majbur bo'ladi.

Matematik induksiya metodi. Muayyan xulosalardan qandaydir umumiy xulosaga olib keladigan fikrlash usuli induksiya deb ataladi.

Masalan, quyidagi masalani ko'rib chiqamiz: qavariq n -burchakning ichki burchaklarining yig'indisini toping. S_n n -burchakning ichki burchaklarining yig'indisi bo'lsin.

U holda

$$S_3 = 180^0, S_4 = 360^0 = 180^0(4 - 2), S_5 = 540^0 = 180^0(5 - 2) \text{ va h.o.}$$

Ushbu hususiy xulosalardan umumiy xulosa chiqarish mumkin: $S_n = 180^0(n - 2)$.

Keling, yana bir misolni ko'rib chiqaylik. $f(x) = x^2 + x + 41$ kvadrat uchhad berilgan bo'lsin. U holda $f(1) = 43, f(2) = 47, f(3) = 53$. Hosil qilingan qiymatlar- tub sonlar. Bu har qanday natural n uchun $f(n)$ tub son degan noto'g'ri xulosaga olib keladi. Darhaqiqat, agar $n = 41$ bo'lsa, $f(41) = 41^2 + 41 + 41 = 41 \cdot 43$ – murakkab sonidir. Bu ikki misoldan ko'rinib turibdiki, bir xil fikrlash usuli birinchi holatda to'g'ri xulosaga, ikkinchi holatda esa noto'g'ri xulosaga olib keladi. Shuning uchun bu fikrlash usuli isbotlash hisoblanmaydi. Ammo bu usul ko'p hollarda gipotezani shakllantirishga yordam beradi, keyinchalik uni boshqa yo'llar bilan isbotlash mumkin. Bunday usul yordamida chiqarilgan xulosa bir nechta aniq xulosalardan olinadi va barcha holatlarni qamrab olmaydi. Shuning uchun bu usul to'liq bo'lmagan induksiya deb ataladi.

Barcha mumkin bo'lgan holatlarni qamrab oladigan fikrlash usuli to'liq induksiya deb ataladi

Ushbu tasdiqni qaraylik: dastlabki k ta toq natural sonlar yig'indisi k^2 ga teng. Haqiqatan ham, agar

$k = 1$ bo'lsa, u holda $1 = 1^2$ bo'ladi;

$k = 2$ bo'lsa, u holda $1 + 3 = 2^2$ bo'ladi;

$k = 3$ bo'lsa, u holda $1 + 3 + 5 = 3^2$ bo'ladi;

.....

Tasdiq $k = 50$ uchun tekshirilgan deb faraz qilaylik. Bu faktdan foydalanib, o'zimizga savol beraylik: $k = 51$ uchun bizning tasdiqimizning o'rinlilikini tekshirish mumkinmi? Bu mumkin ekan. Haqiqatan ham, $k = 50$ uchun, farazga ko'ra, quyidagiga egamiz:

$$1 + 3 + \dots + (2 \cdot 49 + 1) = 50^2.$$

$k = 51$ bo'lsin. U holda $1 + 3 + \dots + (2 \cdot 49 + 1) + (2 \cdot 50 + 1) = 50^2 + 2 \cdot 50 + 1 = (50 + 1)^2 = 51^2$ ga egamiz. Shu tariqa $k = 51, 52, \dots$ va h.o., ya'ni barcha natural sonlar uchun tasdiqning to'g'riligini isbotlashimiz mumkin.

Ushbu isbotlash usuli matematik induksiya metodi deb ataladigan quyidagi printsipga asoslanadi:

n natural soniga bog'liq bo'lgan $P(n)$ tasdiq, agar quyidagi ikkita shart bajarilsa, har qanday n uchun o'rinli bo'ladi:

1) $n = 1$ uchun tasdiq o'rinli.

2) $n = k$ uchun tasdiqning o'rinli ekanligidan $n = k + 1$ uchun ham o'rinliliigi kelib chiqadi

Matematik induksiya metodi natural sonlarning aksiomatik nazariyasining aksiomasidir. Ushbu aksiomaga asoslanib, matematik induksiya metodi tuziladi. Matematik induksiya metodi yordamida isbotlash uch bosqichdan iborat:

1 - bosqich. Induksiya bazisi. Tasdiq $n = 1$ uchun o'rinli ekanligi tekshiriladi.

2 – bosqich. Induksiya farazi. Tasdiq $n = k > 1$ uchun o'rinli deb faraz qilinadi.

3 –bosqich. Induksiyaning yakuniy bosqichi. Tasdiqning $n = k$ uchun o'rinlilikidan $n = k + 1$ uchun ham o'rinliliigi keltirib chiqariladi.

n natural soniga bog'liq bo'lgan ba'zi tasdiqlar qandaydir p natural sonidan boshlab mantiqiy bo'lishi mumkin va p dan boshlanadigan barcha natural sonlar uchun to'g'ri bo'lishi mumkin. Bunday tasdiqlarni ham matematik induksiya metodi orqali

isbotlash mumkin. Bunday hollarda ham matematik induksiya metodi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1 - bosqich. Induksiya bazisi. Tasdiqning o'rinli qandaydir p natural son uchun tekshiriladi.

2 – bosqich. Induksiya farazi. Qaralayotgan tasdiq $n = k$, $k > p$ uchun o'rinli deb faraz qilinadi.

3 –bosqich. Yakuniy bosqichi. Tasdiqning $n = k$ uchun o'rinliligidan $n = k + 1$ uchun ham o'rinli ekanligi isbotlanadi.

TO‘PLAM TUSHUNCHASI. TO‘PLAMLAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR. TO‘PLAMLAR USTIDA AMALLAR

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliy toifali matematika fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada To‘plam tushunchasi. To‘plamlar orasidagi munosabatlar. To‘plamlar ustida amallar tushintiriladi.

Kalit so‘zlar: To‘plamlar, elementlar, tengsizliklar, sonlar, geometrik.

Abstract: This article covers the concept of Collection. Relationships between collections. Operations on collections are explained.

Key words: Sets, elements, inequalities, numbers, geometric.

To‘plam tushunchasi. To‘plamlar orasidagi munosabatlar. To‘plamlar ustida amallar

To‘plam tushunchasi. To‘plam matematikaning asosiy tushunchalaridan biridir. U obyektlar yoki obyektlar majmuasini tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, ma’lum bir ta’lim muassasasining barcha talabalari to‘plami, tekislikdagi barcha uchburchaklar to‘plami haqida aytishimiz mumkin. To‘plamlarni tashkil etuvchi ob’ektlar yoki elementlar to‘plam elementlari deb ataladi.

To‘plamlar odatda A, B, \dots, X, \dots bosh harflar bilan belgilanadi. Agar a A to‘plamning elementi bo‘lsa, uni $a \in A$ ko‘rinishda, agar a A to‘plamning elementi bo‘lmasa, uni $a \notin A$ ko‘rinishda yozamiz.

Masalan, agar Z barcha butun sonlar to‘plami bo‘lsa, unda quyidagi munosabatlar to‘g‘ri bo‘ladi:

$$3 \in Z, -5 \in Z, \frac{1}{3} \notin Z, \sqrt{3} \notin Z.$$

Odatda, to‘plam barcha elementlarni ko‘rsatish yoki ko‘rib chiqilayotgan to‘plamning barcha elementlariga ega bo‘lgan xarakterli xususiyatni ko‘rsatish orqali aniqlanadi. A to‘plam faqat


a, b, c elementlaridan iborat bo'lsin. Shunda A to'plamning elementlari figurali qavs ichiga olinadi va $A = \{a, b, c\}$ shaklida yoziladi. Bunday holda, elementlarning tartibi muhim emas. $P(x)$ xossaga ega barcha elementlarning A to'plami $A = \{x \mid P(x)\}$ kabi belgilanadi.

Ko'pgina hollarda, berilgan $P(x)$ to'plam elementlarining xarakterli xususiyati, ya'ni so'zlar bilan tuziladi. Masalan, $4x^2 + 6x - 8 = 0$ tenglamasining ildizlari to'plami yoki $y = \log_2(x^2 - 1)$ funksiyasining aniqlanish sohasi. To'plam hech qanday obyektga ega bo'lmagan xususiyat bilan aniqlanishi mumkin. Masalan, kvadrati 3 ga teng ratsional sonlar to'plami; $x^2 + 2 = 0$ tenglamaning ildizlari bo'lgan haqiqiy sonlar to'plami.

Hech qanday elementga ega bo'lmagan to'plamga bo'sh to'plam deb ataladi va \emptyset belgisi bilan belgilanadi. Elementlari soni chekli bo'lgan to'plamga chekli to'plam deyiladi. Elementlari soni cheksiz to'plam cheksiz to'plam deyiladi.

Matematikada ko'pincha sonli to'plamlar bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi, ya'ni elementlari faqat sonlardan tashkil topgan to'plamlar. Ulardan ba'zilar uchun standart yozuv qabul qilingan: N - barcha natural sonlar to'plami; Z - barcha butun sonlar to'plami; Q - barcha ratsional sonlar to'plami; R - barcha haqiqiy sonlar to'plami.


Keyinchalik $[a; b]$ orqali $a \leq x \leq b$ tengsizliklari bilan aniqlangan chiziqdagi oraliqni belgilaymiz. $(a; b]$, $[a; b)$, $(a; b)$ orqali mos ravishda $a < x \leq b$; $a \leq x < b$; $a < x < b$ tengsizliklari bilan aniqlangan oraliqlarni belgilaymiz. Ushbu oraliqlar mos ravishda geometrik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin:



1-rasm.

$x > a$, $x \geq a$, $x < b$, $x \leq b$ tengsizliklar bilan berilgan haqiqiy chiziqdagi cheksiz oraliqlarni $(a; +\infty)$, $[a; +\infty)$, $(-\infty; b)$, $(-\infty; b]$ kabi belgilaymiz.

Ular geometrik shaklda quyidagicha ifodalanishi mumkin:



Haqiqiy chiziqni $(-\infty, +\infty)$ bilan belgilaymiz.

To'plamlar orasidagi munosabatlar.

Ta'rif. B to'plamning har bir elementi A to'plamning ham elementi bo'lsa, B to'plam A to'plamining qism-to'plami deyiladi. B to'plam A to'plamining qism- to'plami quyidagicha yoziladi: $B \subset A$. Bunday yozuv B to'plamning har bir elementi A to'plamning elementi ekanligini va B to'plamning A to'plamga kirishini bildiradi.

Masalan, $\{4, 8\}$ va $\{6\}$ to'plamlar $\{2, 4, 6, 8\}$ to'plamning qism to'plamlaridir.

1-misol. $B = \{2, 4, 6\}$, $A = \{1, 2, 3, 4, 5, 6, 7\}$ bo'lsin. Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri: $B \subset A$ yoki $A \subset B$?

Yechish. B to'plam A to'plamga kiritilgan, demak, $B \subset A$, lekin A to'plami B to'plamiga kiritilmagan, demak, $A \not\subset B$.

To'plamlarning ayrim xossalari:

Bo'sh to'plam har qanday to'plamning qism-to'plamidir: $\emptyset \subset A$.

Har qanday to'plam o'ziga qism-to'plam hisoblanadi, ya'ni har qanday A to'plam uchun $A \subset A$ munosabat o'rinli.

Ta'rif: Har biri boshqasining qism- to'plami bo'lsa ($A \subset B$ va $B \subset A$), bu to'plamlar teng to'plamlar deyiladi ($A = B$). Bir xil elementlardan tashkil topgan to'plamlar teng to'plamlar deyiladi. Bunda to'plam elementlarining joylashish tartibi muhim emas.

Masalan, $\{8,2,5\}$, $\{2,5,8\}$ va $\{5,8,2\}$ to'plamlar teng.

Agar X to'plam Y to'plamga teng bo'lsa, u holda $X=Y$ kabi yozish mumkin. Aks holda $X \neq Y$ kabi yoziladi.

Misol 2. $Z = \{3,5,7\}$, $Y = \{7,5,3,5,7\}$ to'plamlar berilgan. Z va Y to'plamlari tengmi?

Yechish. $Z=Y$, chunki ular bir xil elementlardan iborat.

Misol 3. $Z=\{3,5,7\}$, $X=\{\{7,5\}, \{3,5,7\}\}$ to'plamlar berilgan. Ular tengmi?

Yechish. $Z \neq X$, chunki ikkinchi to'plamning elementlari ikkita to'plam hisoblanadi. Shunday qilib, bu to'plamlar turli tabiatdagi elementlardan iborat va teng bo'lishi mumkin emas.

Bo'sh to'plam har qanday to'plamning qism-to'plami hisoblanadi. Har bir to'plamda kamida ikkita qism-to'plam mavjud: bo'sh to'plam va to'plamning o'zi. Ushbu ikkita qism-to'plam xosmas qism-to'plamlar deb ataladi. Xosmas qism-to'plamdan boshqa har qanday qism-to'plam berilgan to'plamning xos qism-to'plami deyiladi.

Bo'sh to'plam xos qism-to'plamlarga ega emas va ikkala xosmas qism-to'plamlari o'zaro teng. Har qanday bir elementli to'plamda ham xos qism-to'plamlari yo'q, lekin uning xosmas qism-to'plamlari turlicha. Har qanday ikki elementli to'plam esa ikkita xos qism-to'plamlarga ega. To'plamdagi elementlar soni ortib borishi bilan uning xos qism-to'plamlari soni ham ortib boradi. Misol uchun, agar $F=\{3,5\}$ bo'lsa, F to'plamning xos qism-to'plamlari $\{3\}$ va $\{5\}$ to'plamlar bo'ladi.

Ta'rif. A to'plamning barcha qism-to'plamlari - A to'plamning to'plam-darajasi deyiladi va $R(A)$ kabi belgilanadi.

$A=\{4,5,6\}$ bo'lsin. U holda to'plamning darajasi quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) $A=\{4,5,6\}$ – boshlang'ich to'plamdan.
- 2) bo'sh to'plamdan \emptyset .
- 3) bir elementli uchta qism-to'plamdan: $\{4\}$; $\{5\}$; $\{6\}$.
- 4) ikki elementli uchta qism-to'plamdan A : $\{\{4,5\}\}$; $\{\{4,6\}\}$; $\{\{5,6\}\}$.

Shunday qilib, to'plamning darajasi:

$R(A) = \{A, \{4\}, \{5\}, \{6\}, \{4,5\}, \{4,6\}, \{5,6\}, \emptyset\}$; $2^3=8$ ta elementdan tashkil topgan.


n -elementli to'plamning to'plam-darajasi 2^n ta elementdan iborat ekan.

To‘plamlar ustida amallar.

Ta’rif. A va B to‘plamlarning kesishmasi deb, A to‘plamga ham, B to‘plamga ham tegishli bo‘lgan elementlardan tuzilgan to‘plamga aytiladi. A va B to‘plamlarning kesishmasi $A \cap B$ kabi belgilanadi.

Misol 4. $A = \{0, 1, 3, 6\}$, $B = \{3, 6, 7, 8\}$ berilgan bo‘lsin. U holda $A \cap B = \{3, 6\}$.

Misol 5. $A = [-3; 3]$ kesma, $B = (0; 6]$ oraliqlar berilgan bo‘lsin. U holda $A \cap B = (0; 3]$ (3- chizma).



3-rasm.


Ta’rif. A va B to‘plamlar berilgan bo‘lsin. A yoki B to‘plamga tegishli barcha elementlardan tashkil topgan to‘plam shu to‘plamlarning birlashmasi deyiladi va

$A \cup B$ kabi belgilanadi.

Misol 6. $A = \{5, 6, 1, 2, 3\}$, $B = \{1, 2, 12, 13\}$ berilgan bo‘lsin.

U holda $A \cup B = \{5, 6, 1, 2, 3, 12, 13\}$.

Misol 7. $A = [3; 5]$ kesma, $B = (4; 6]$ oraliq bo‘lsin. U holda $A \cup B = [3; 6]$ kesmadan iborat bo‘ladi. (4-chizma).



4-rasm.

Ta’rif. A va B to‘plamlarning ayirmasi deb, A ning B da mavjud bo‘lmagan barcha elementlaridan tuzilgan to‘plamga aytiladi. A va B to‘plamlarning ayirmasi $A \setminus B$ kabi belgilanadi.

Misol 8. $A = \{\alpha, \beta, \gamma, \delta\}$, $B = \{1, 2, \alpha, \beta\}$ berilgan bo‘lsin. $A \setminus B$ ni toping.

Yechish. $\gamma, \delta \in A$ va $\gamma, \delta \notin B$. Shuning uchun, $A \setminus B = \{\gamma, \delta\}$.

Matematikaning ba’zi bo‘limlarida ma’lum bir to‘plamni va ushbu to‘plamning barcha mumkin bo‘lgan qism-to‘plamlarini ko‘rib chiqish bilan

cheklanish kerak. Masalan, planimetriyada biz tekislikning qism-to'plamlari bo'lgan tekislik figuralarini o'rganamiz.

Agar biror E to'planning barcha mumkin bo'lgan qism-to'plamlarini ko'rib chiqish bilan cheklansak, bu holda E to'plami universal to'plam deb ataladi.

Ta'rif. E to'plam universal to'plam va A to'plam E to'planning qism-to'plami bo'lsin. U holda $E \setminus A$ to'plam A to'planning E to'plamga to'ldiruvchisi yoki oddiygina A to'planning to'ldiruvchisi deb ataladi va A' yoki \bar{A} kabi belgilanadi.

To'plamlar ustida bajariladigan amallarning xossalari:

1^o. $A \cup A = A$ - birlashmaning idempotentligi;

2^o. $A \cap A = A$ - kesishmaning idempotentligi;

3^o. $A \cup B = B \cup A$ - birlashmaning kommutativligi;

4^o. $A \cap B = B \cap A$ - kesishmaning kommutativligi;

5^o. $(A \cup B) \cup C = A \cup (B \cup C)$ - birlashmaning assotsiativligi;

6^o. $(A \cap B) \cap C = A \cap (B \cap C)$ - kesishmaning assotsiativligi;

7^o. $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C)$ - birlashmaning kesishmaga nisbatan distributivligi;

8^o. $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$ - kesishmaning birlashmaga nisbatan distributivligi;

9^o. $A \cup E = E$

10^o. $A \cap E = A$

Universal to'planning xossalari ;

11^o. $\overline{A \cap B} = \bar{A} \cup \bar{B}$

12^o. $\overline{A \cup B} = \bar{A} \cap \bar{B}$

De-Morgan qonunlari;

Ushbu xossalarning isboti to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirish orqali amalga oshiriladi. Misol tariqasida, 8^o xossasini isbotlaymiz, ya‘ni $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$.

$x - A \cap (B \cup C)$ to‘planning ixtiyoriy elementi bo‘lsin. U holda to‘plamlarning kesishmasiga berilan ta‘rifiga asosan $x \in A$ va $x \in (B \cup C)$. Endi to‘plamlarning birlashmasiga berilan ta‘rifiga asosan quyidagini hosil qilamiz: $x \in A$ va $x \in B$ yoki $x \in C$. Bu yerdan $x \in A \cap B$ yoki $x \in A \cap C$, ya‘ni $x \in (A \cap B) \cup (A \cap C)$ ni hosil qilamiz. Shunday qilib, $A \cap (B \cup C) \subset (A \cap B) \cup (A \cap C)$.


Xuddi shunday isbotlash mumkin, agar $x \in (A \cap B) \cup (A \cap C)$, u holda $x \in A \cap (B \cup C)$, ya‘ni $(A \cap B) \cup (A \cap C) \subset A \cap (B \cup C)$.

Shunday qilib, $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$.

3. Eyler-Venn diagrammalari.


To‘plamlarni grafik tasvirlash uchun ular ustida amallar va ularning xossalari, tekislikdagi diagrammalar (Eyler-Venn diagrammasi) qo‘llaniladi. Bunda to‘plam qandaydir yaxlit figura, odatda aylana, universal to‘plam esa to‘rtburchak bilan tasvirlanadi. Doiralarning kesishishi to‘plamlarning kesishishi, aylanalar birlashmasi to‘plamlar birlashmasi deb qaraladi.

Masalan:




$A \cup B$

5-rasm.




$A \cap B$

6-rasm.




$A \setminus B$

7-rasm.




$B \setminus A$

8-rasm.



$$A \subset B$$

9-rasm.

$$E \setminus A$$

10-rasm.

5, 6, 7 va 8-rasmlarda ikkita to‘plamning birlashmasi, kesishmasi, ayirmasi ko‘rsatilgan. 9-rasm A to‘plami B to‘plamning qism-to‘plami ekanligini bildiradi. E universal to‘plami qandaydir to‘rtburchakning nuqtalar to‘plami bilan ifodalanadi. A to‘plamning to‘ldiruvchisi 10-rasmda to‘rtburchakning shtrixlangan qismi sifatida ko‘rsatilgan.

FORMATION OF ECO-FORESIGHT COMPETENCE IN FUTURE SPECIALISTS

Shomurotov Bahrom Husanovich

Senior Lecturer, Department of Ecology and Labor Protection, Karshi Engineering and Economics Institute

***Abstract:** The following article is based on the need for a future modern specialist to be able to see technical and technological innovations that may occur in the future, to adapt to them and to be able to predict not only the development but also the problems that will arise, and the need to plan the solution of problems in advance. Information about foresight as one of the most modern technologies of ecological forecasting is given, the classification of foresight methods and ways of using them are described. The importance, purpose and role of future specialists during the professional activity of the eco-foresight competence is determined.*

***Key words:** higher education, innovation, environmental forecasting, foresight, method, eco-foresight, competence.*

Introduction

It is one of the priority tasks of our country to establish a system of training highly qualified personnel in higher education who have high moral and ethical qualities, who think independently, who have deep theoretical knowledge and practical skills, who can make a worthy contribution to the stable development of economic sectors, and who can find their place in the labor market. One of the challenges in reforming the higher education system in line with the spirit of the times is that it needs to develop in a leading and forward-looking manner in an environment of innovative production. Until now, the traditional education system has relied more on previously acquired theoretical and practical knowledge, but now the time demands adaptation by predicting the future, that is, educational goals and tasks must be oriented to future development. It is necessary for the future modern specialist to be able to see the technical and technological innovations that may occur in the future, to adapt to them and to be able to predict not only the development, but also the problems that will arise, and to plan the solution of the problems in advance. According to the experts of the Club of Rome, education should be aimed at forming the skills of "literacy for the future" in young people [1]. This is formed on the basis of foresight education.

METHODS OF RESEARCH

The analysis of scientific and teaching-methodical literature, pedagogical observation, comparative analysis, generalization, pedagogical experiment-testing and foresight methods were used in the research process.

RESULTS AND DISCUSSION

The content of foresight education is aimed at learning and applying new technologies interdisciplinary and interdisciplinary. In order to take a proper place in the international education system, it is necessary to implement reforms based on the experiences of developed countries and ensure competitiveness. For this, promising projects, innovative programs and technological innovations are necessary. Today, many European countries use foresight technology as the main instrument of development. In foresight studies, representatives of all sectors, including public representatives, are involved in the expert group, and it is considered the main methodology for determining the future of innovative development. For this reason, foresight is also considered as a tool for managing future development. Therefore, the word "Foresight" (English: "Foresight") means "Looking into the future" [2].

Futurology actually deals with predicting the future. Futurology is the science of the future, based on interdisciplinary research, it consists in finding fundamental scientific answers to the problems of "how people will live and work in the future, that is, what will be the future of human history" and creating a future scenario. The main focus is to predict the future by studying the laws of development of the past and the present, that is, which techniques and technologies will develop today, what will change in the near future, what events may occur? - is to search for a solution to such questions.

Future ecology research based on foresight technology differs from traditional research in the following features:

1. Study of the main modifiable factors in current environmental events and processes, including the smallest environmental problems ("wild cards", "wildcards", "bifurcation point")
2. Creation of systematic and reasonable future scenarios based on conclusions of social, technological, economic, ecological and political sciences;
3. Creation and implementation of step-by-step future strategies, road maps, concepts based on theoretical conclusions and practical recommendations.

It should be noted that eco-foresight education is not a prediction of the future based on fantastic conclusions. The experience of experts shows that forecasting based on foresight is the most accurate prediction result [3].

The use of Foresite technology methods in the educational process is selected depending on the educational direction or field of specialization and the type of training.

The methods of using foresight in the educational process can be systematized based on several criteria [4]:

- by type of foresight: normative (creating a desired future scenario) or scientific research (creating a future scenario based on established development traditions);
- on the purpose of the foresight: development of ideas or analytical;
- according to the method of working with experts: direct communication, online communication, questionnaires and direct personal discussion);
- according to the level of traditionality and innovation.

